



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRINING
BUYRUG‘I**

Toshkent sh.

№ 385

2025-y. “22” 08

**Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatiga oid me‘yoriy hujjatlar
ro‘yxati, ularning yuritish yo‘riqnomalari va shakllarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar musiqa va san‘at maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2016-yil 5-maydagi 144-son va “Madaniyat ta‘limi markazi” davlat muassasasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-dekabrda 862-son qarorlarida, shuningdek, madaniyat vazirining 2025-yil 5-avgustdagi 366-son buyrug‘i 4-bandi ikkinchi xatboshisida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash, bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatiga oid me‘yoriy hujjatlarni yagona shaklda yuritish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda yuritiladigan ish hujjatlarini maqbullashtirish hamda boshqaruv jarayonini ortiqcha qog‘ozbozlikdan xoli etish orqali samaradorlikka erishish maqsadida

B U Y U R A M A N :

1. Madaniyat vazirining 2025-yil 5-avgustdagi 366-son buyrug‘i 4.2-bandi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab bolalar musiqa va san‘at maktablarida quyidagi me‘yoriy va o‘quv-pedagogik hujjatlar elektron shaklda (matn ko‘rinishida) yuritilsin:

- kadrlar, asosiy faoliyat va o‘quvchilarga oid buyruqlar;
- pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari;
- o‘qish uchun to‘lovlardan ozod etish va o‘qituvchi hamda konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya bayonnomalari;
- ota-onalarning umumiy yig‘ilishi bayonnomalari;
- o‘quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlar;
- o‘qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlari qaydnomasi;
- ta‘lim muassasasining qabul komissiyasi bayonnomalari;
- o‘quvchilarning o‘qishini bir ta‘lim yo‘nalishidan boshqasiga ko‘chirish komissiyasi bayonnomalari;
- ta‘lim muassasasi o‘quvchilarining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari;
- ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha bo‘linmalar (uslubiy birlashmalar) yig‘ilish bayonnomalari;
- bo‘linmalarining uslubiy ma‘ruza va ochiq darslar bayonnomalari;

bo'linmalarning ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari.

3. Belgilansinki, bolalar musiqa va san'at maktablarida elektron shakldagi (matn ko'rinishida) kadrlar, asosiy faoliyat va o'quvchilarga oid buyruqlar kalendar yilidan kelib chiqqan holda 2026-yil 1-yanvardan boshlab yuritiladi.

4. Quyidagilar:

Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq;

Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha yo'riqnomalar 2-ilovaga muvofiq;

Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi (Sh.Sharipov), Madaniyat ta'limi markazi (A.Djamaldinov) Qoraqalpog'iston Respublikasi madaniyat vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar madaniyat boshqarmalari bilan birgalikda:

bolalar musiqa va san'at maktablarida maqbullashtirilgan me'yoriy va o'quv-pedagogik hujjatlar yuzasidan targ'ibot ishlari va o'quv-seminarlarini tashkil etsin hamda hujjatlarni qog'oz (kitob) shaklida yuritishdan tejalgan vaqtda boshqaruv samaradorligi va ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratsin;

bolalar musiqa va san'at maktablarini o'rganish bo'yicha turli ishchi guruhlar va boshqa tashkilotlar tomonidan me'yoriy va o'quv-pedagogik hujjatlarni qog'oz (kitob) shaklida yuritishni talab etilishiga yo'l qo'yilmasligini qat'iy nazoratga olsin.

6. Raqamlashtirish va axborot xavfsizligi bo'limi (J.Shermuxammedov) Ta'lim sohasini muvofiqlashtirish bo'limi (Sh.Sharipov), Madaniyat ta'limi markazi (A.Djamaldinov) bilan birgalikda bolalar musiqa va san'at maktablarida yuritiladigan me'yoriy hujjatlarni maxsus platforma orqali bosqichma-bosqich raqamlashtirish choralarini ko'rsin.

7. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2019-yil 12-avgustdagi "Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar namunalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 478-son buyrug'ining 2-13-ilovalari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. **Madaniyat ta'limi markazi (A.Djamaldinov)** bolalar musiqa va san'at maktablarida me'yoriy va o'quv-pedagogik hujjatlarni amaliyotda qo'llash jarayonida soha mutaxassislari tomonidan bildirilgan takliflardan kelib chiqqan holda ushbu hujjatlarni doimiy ravishda takomillashtirib borsin.

9. **Ijro iintizomi va devonxona bo'limi (D.Shukurov)** ushbu buyruqni tegishli mas'ullarga yetkazsin.

10. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari A.Tadjixanov zimmasiga yuklansin.

Vazir



O. Nazarbekov

**Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatiga oid normativ-huquqiy
hujjatlar
RO‘YXATI**

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- O‘zbekiston Respublikasining qonunlari**
2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi
4. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni
5. O‘zbekiston Respublikasining “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida” 2021-yil 20-yanvardagi O‘RQ-668-son Qonuni
6. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son Qonuni
7. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-son Qonuni
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son Farmoni
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 27-iyuldagi PF-114-son Farmoni
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san’at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo‘yicha 2009–2014-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi to‘g‘risida” 2008-yil 8-iyuldagi PQ-910-son qarori
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bolalar musiqa va san’at maktablari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2016–2020-yillarga mo‘ljallangan Davlat dasturi to‘g‘risida” 2015-yil 20-noyabrdagi PQ-2435-son qarori
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-son qarori

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida” 2016-yil 27-dekabrda PQ-2699-son qarori

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 2-fevralda PQ-112-son qarori

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrda PQ-391-son qarori

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari

16. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2021-yil 7-sentabrda 558-son qarori

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar musiqa va san‘at maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2016-yil 5-mayda 144-son qarori

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar musiqa va san‘at maktablari xodimlari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 3-mayda 127-son qarori

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta‘limi xodimlari mehnatiga haq to‘lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to‘g‘risida” 2005-yil 21-dekabrda 275-son qarori

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘rindoshlik asosida hamda bir necha kasbda va lavozimda ishlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2012-yil 18-oktabrda 297-son qarori

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta‘lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 19-sentabrda 572-son qarori

22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida Musiqa sohasi pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2019-yil 20-fevralda 149-son qarori

23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Badiiy akademiyasi huzuridagi Badiiy ta‘lim yo‘nalishlarida pedagog va mutaxassis kadrlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish markazi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 21-iyunda 385-son qarori

24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 2-avgustda 424-son qarori

25. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yong‘in xavfsizligi qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2010-yil 20-oktabrdagi 649-son qarori

Vazirlik va idoralarning buyruq va qarorlari

26. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san‘at maktablarining namunaviy ustavini tasdiqlash to‘g‘risida” 2017-yil 22-maydagi 361-son buyrug‘i

27. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tasarrufidagi bolalar musiqa va san‘at maktablarining namunaviy shtat birliklarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 22-maydagi 269-son buyrug‘i

28. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2024-yil 29-noyabrdagi 576-son buyrug‘ining 3-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bolalar musiqa va san‘at maktablari xodimlarining namunaviy lavozim yo‘riqnomalari”

29. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejalarini hamda o‘quv rejalariga tushuntirishlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 30-dekabrda 766-son buyrug‘i

30. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2019-yil 12-avgustdagi “Bolalar musiqa va san‘at maktablari faoliyatiga oid me‘yoriy hujjatlar namunalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 478-son buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Bolalar musiqa va san‘at maktablarining o‘quv dasturlari”

31. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 19-sentabrdagi 176-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Budget tashkilotlari xodimlarini moddiy rag‘batlantirish maxsus fondi to‘g‘risida Nizom” (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 22-oktabrda 3561 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

32. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi va Moliya vazirligining 2008-yil 31-dekabrda 46, 121-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ota-onalar tomonidan bolalarning bolalar musiqa va san‘at maktablarida o‘qishi uchun haq to‘lash va undan foydalanish tartibi to‘g‘risida Nizom” (Adliya vazirligi tomonidan 2009-yil 5-fevralda 1898 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

33. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirining 2016-yil 8-noyabrdagi 13-mh-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Bolalar musiqa va san‘at maktablarini musiqa asboblari, maxsus mebellar, asbob-uskunalar va boshqa anjomlar bilan jihozlash Normativlari” (Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 30-noyabrda 2841 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

34. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2020-yil 28-maydagi 24-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Tovar-moddiy zaxiralar” (Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda 3259 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

35. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 133-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Asosiy vositalar” (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 9-avgustda 3546 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

36. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 14-iyundagi 141-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Inventarizatsiyani tashkil etish va o‘tkazish” (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 12-avgustda 3548 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

37. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2015-yil 19-oktabrdagi 92-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Vazirliklar, idoralar, korxonalar va tashkilotlar xodimlari O‘zbekiston Respublikasi tashqarisiga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari uchun mablag‘lar berish tartibi to‘g‘risida Nizom” (Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 19-noyabrda 2730 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

38. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining 2012-yil 10-iyuldagi 200-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Xodimlarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom” (Adliya vazirligi tomonidan 2012-yil 29-avgustda 2387 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan)

II. Ma‘muriy-boshqaruv hujjatlari

1. Bolalar musiqa va san‘at maktabi Ustavi
2. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma
3. Ko‘chmas mulk obyektining kadastr pasporti
4. Kadrlarga oid buyruqlar yig‘ma jildi (reyestr) va kadrlarga oid buyruqlarni ro‘yxatga olish jurnali
5. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar yig‘ma jildi (reyestr) va asosiy faoliyatga oid buyruqlarni ro‘yxatga olish jurnali
6. O‘quvchilarga oid buyruqlar yig‘ma jildi (reyestr) va o‘quvchilarga oid buyruqlarni ro‘yxatga olish jurnali
7. Jamoa shartnomasi va ilovalari
8. Ta‘lim muassasasi faoliyatiga oid qo‘shimcha ichki-lokal hujjatlar
9. Ta‘lim muassasasining o‘quv yiliga mo‘ljallangan ish rejasi
10. Pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va pedagogik kengash yig‘ilishi bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali
11. Ta‘lim muassasasi xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari
12. Ta‘lim muassasasining shtatlar jadvali
13. Ta‘lim muassasasining xarajatlar smetasi
14. O‘qish uchun to‘lovlardan ozod etish va o‘qituvchi hamda konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va komissiya bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali
15. Bitiruvchilarga o‘qishni tugatganligi to‘g‘risida berilgan guvohnomalarni qayd etish kitobi
16. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro‘yxatdan o‘tkazish daftari

17. Ota-onalarning umumiy yig‘ilishi bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va ota-onalarning umumiy yig‘ilishi bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali

18. Mehnat shartnomalari va mehnat daftarchalarini (mavjud bo‘lsa) hisobga olish kitobi

19. Ta‘lim muassasasi tomonidan berilgan ma‘lumotnomalarni ro‘yxatga olish jurnali

20. Ta‘lim muassasasi direktori bilan o‘quvchilar ota-onalari o‘rtasida o‘qish muddatiga tuzilgan shartnomalarni ro‘yxatga olish jurnali

21. Faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalarni ro‘yxatga olish jurnali

III. O‘quv-tarbiya jarayonlarni tashkil etishga oid hujjatlar

1. O‘quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlar yig‘ma jildi (reyestr) va farmoyishlarni ro‘yxatga olish jurnali

2. Ta‘lim muassasasining tasdiqlangan o‘quvchilar kontingenti

3. Ta‘lim muassasasining umumiy soatlar rejasi (setkasi)

4. O‘qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro‘yxati

5. O‘qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlari qaydnomasi

6. Ta‘lim muassasasining umumiy dars jadvali

7. Ta‘lim muassasasining guruhli dars jadvali

8. Yakka va guruhli sinf jurnallari

9. O‘zgargan soatlar bo‘yicha bildirgi

10. O‘qituvchi va konsertmeysterlar tabeli

11. Ma‘muriy-xo‘jalik xodimlar tabeli

12. Yakka tartibdagi o‘quv mashg‘ulotlari uchun shaxsiy ish rejasi

13. San‘at yo‘nalishlari uchun o‘zlashtirish tabeli

14. Guruhli fanlar bo‘yicha taqvimiy ish rejasi

15. Jamoa ijrochiligi fanlari (xor, orkestr, ansambl) bo‘yicha repertuar rejalari

16. Qabul sinovlarida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash qaydnomasi

17. Ta‘lim muassasasining qabul komissiyasi bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va qabul komissiyasi bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali

18. O‘quvchilarning o‘qishini bir ta‘lim yo‘nalishidan boshqasiga ko‘chirish komissiyasi bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va ko‘chirish komissiyasi bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali

19. Akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o‘tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari

20. San‘at yo‘nalishlari bo‘yicha ijodiy sinovlar, ko‘rgazmalar, sinfdan sinfga o‘tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari

21. Ta'lim muassasasi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari yig'ma jildi (reyestr)

22. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'linmalar (uslubiy birlashmalar) hujjatlari:

ish rejasi;

o'qituvchi va konsertmeysterlar yig'ilishi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr);

uslubiy ma'ruza va ochiq darslar bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr);

ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr);

bo'linmalar yig'ilishlari bayonnomalarini yagona ro'yxatga olish jurnali.

23. Ta'lim muassasasi tomonidan o'tkazilgan turli tadbirlar hujjatlari (ijro dasturlari, fotolavhalar, ma'lumotnomalar va boshqalar)

IV. Xodimlarning shaxsiy hujjatlari

1. Xodimning ishga qabul qilish to'g'risidagi arizasi

2. Mehnat shartnomasi

3. Ishga qabul qilish va mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi buyruq ko'chirmalari

4. Fuqarolik pasporti yoki ID-karta nusxasi

5. Mehnat daftarchasi yoki elektron mehnat daftarchasidan ko'chirma

6. Asosiy ish joyidan ma'lumotnoma (o'rindoshlik asosida ishlayotgan shaxslar uchun)

7. Harbiy guvohnoma yoki harbiy hisobda turganlik haqidagi guvohnoma nusxasi

8. Oliy yoki o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotini tamomlaganligi to'g'risidagi diplom va diplom ilovasi nusxasi

9. So'rovnoma

10. Tarjimayi hol

11. Shaxsiy varaqa (T-2)

12. 3 x 4 o'lchamli 2 ta fotosurat

13. Malaka oshirganlik haqida sertifikat nusxasi

14. Malaka toifasi haqida sertifikat nusxasi

15. To'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma (pul yoki tovar qimmatliklari bilan bevosita muomala qilayotgan xodimlar uchun)

16. Shaxsiy tibbiyot kitobchasi

V. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlari

1. Ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) ko'rsatilgan ariza

2. O'quvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi

3. O'quvchiga belgilangan shaklda berilgan tibbiy ma'lumotnoma
4. 3 x 4 o'lchamli 2 ta fotosurat
5. Ta'lim muassasasi direktori bilan o'qishga qabul qilingan o'quvchilarning ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga shartnoma

Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlarni yuritish bo'yicha YO'RIQNOMALAR

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilingan, umummajburiy davlat ko'rsatmalari sifatida huquqiy normalarni belgilashga, o'zgartirishga yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirlik va idoralarning buyruqlari va qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari hamda bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar direktor va direktor o'rinbosarlarida qog'oz shaklida bo'lishi lozim.

Ushbu normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz)dan bir oyda kamida bir marotaba tekshirib borilishi tavsiya etiladi.

II. Ma'muriy-boshqaruv hujjatlari

1. Bolalar musiqa va san'at maktabi Ustavi

Ta'lim muassasasi o'z faoliyatini ustav va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlari asosida yuritadi.

Ta'lim muassasasining ustavi ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Ta'lim muassasasining ustavi ip o'tkazib bog'lanadi, raqamlanadi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi hamda hududiy tegishlilik bo'yicha Davlat xizmatlari markazi tomonidan ro'yxatga olinadi.

"Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi Nizom"ga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganda yoki ta'lim muassasasining rekvizit ma'lumotlari o'zgartirishda ta'lim muassasasi Ustavi yangidan tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasasi Ustavi direktor tomonidan saqlanadi.

2. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnoma ta'lim muassasasining yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi guvohnomasi direktor tomonidan saqlanadi.

3. Ko'chmas mulk obyektining kadastr pasporti

Ko'chmas mulk obyektining kadastr pasporti ta'lim muassasasiga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan ko'chmas mulk obyektiga egalik huquqini belgilovchi hujjat hisoblanadi.

Ta'lim muassasasi kadastr pasporti direktor tomonidan saqlanadi.

4. Kadrlarga oid buyruqlar yig'ma jildi (reyestr) va kadrlarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali

Kadrlarga oid buyruqlarda xodimlarni ishga qabul qilish, mehnat sharoitlarini o'zgartirish, boshqa ishga o'tkazish, mehnat shartnomasini bekor qilish, xodimga mehnat va ijtimoiy ta'tillarni berish, xodimga nisbatan intizomiy jazo qo'llash, shaxsga doir ma'lumotlarni o'zgartirish va boshqa mehnat munosabatlari to'g'risidagi buyruqlar rasmiylashtiriladi.

Kadrlarga oid buyruqlar elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Kadrlarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Kadrlarga oid buyruqlar va mazkur buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali kotiba-ish yurituvchi yoki buyruq asosida kadrlar bilan ishlash vazifasi yuklangan xodim tomonidan yuritiladi.

Kadrlarga oid buyruqlar ta'lim muassasasida 75 yil muddatda saqlanadi.

5. Asosiy faoliyatga oid buyruqlar yig'ma jildi (reyestr) va asosiy faoliyatga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali

Asosiy faoliyatga oid buyruqlarda ta'lim muassasasining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish, shuningdek, o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tashkil etish, mehnatga haq to'lash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish, ustamalar belgilash va mukofotlash, pedagoglarga o'quv yuklamalarini tasdiqlash, turli komissiya va ishchi guruhlarni tashkil etish, sanitariya, mehnatni muhofaza qilish, texnika va yong'in xavfsizligi to'g'risidagi buyruqlar rasmiylashtiriladi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar va mazkur buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi.

Asosiy faoliyatga oid buyruqlar ta'lim muassasasida 25 yil muddatda saqlanadi.

6. O'quvchilarga oid buyruqlar yig'ma jildi (reyestr) va o'quvchilarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali

O'quvchilarga oid buyruqlarda o'quvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishini ko'chirish, bir ta'lim yo'nalishidan boshqa ta'lim yo'nalishiga o'tkazish, o'qishdan chetlashtirish, akademik ta'til berish, akademik ta'tildan qaytish, o'quvchilar kontingentini tasdiqlash, o'qish uchun to'lovlardan ozod etish, o'quvchilarga 70 foiz miqdordagi to'lovlarni belgilash, bolaning kasalligi davrida badal to'lovlarini qayta hisoblash, o'quvchilarning shaxsga doir ma'lumotlarini o'zgartirish, o'quvchilarni byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan rag'batlantirish, bitiruv imtihonlariga ruxsat berish, o'quvchilarni sinfdan-sinfga o'tkazish, o'qishni tugatganligi va bitiruvchilarga guvohnomalarni berish to'g'risidagi buyruqlar rasmiylashtiriladi.

O'quvchilarga oid buyruqlar elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Mazkur buyruqlarda o'quvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, mutaxassisligi, sinfi to'liq yozilishi talab etiladi.

O'quvchilarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

O'quvchilarga oid buyruqlar va mazkur buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi.

O'quvchilarga oid buyruqlar ta'lim muassasasida 50 yil muddatda saqlanadi.

7. Jamoa shartnomasi va ilovalari

Jamoa shartnomasi tashkilotda yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi hamda xodimlar tomonidan o'z vakillari orqali va ish beruvchi tomonidan tuziladigan mehnat to'g'risidagi huquqiy hujjatdir.

Jamoa shartnomasi imzolangan kundan e'tiboran yoki jamoa shartnomasida belgilangan kundan e'tiboran kuchga kiradi va shartnomada nazarda tutilgan muddat ichida, biroq ko'pi bilan uch yil amal qiladi. Mazkur muddat tugagach, jamoa shartnomasi taraflar yangi shartnoma tuzguniga yoki amaldagi jamoa shartnomasini o'zgartirguniga, to'ldirguniga qadar amal qiladi. Taraflar jamoa shartnomasining amal qilish muddati tugaguniga qadar uni uzaytirishi mumkin.

Jamoa shartnomasi va ilovalari ta'lim muassasasi direktori hamda kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi tomonidan saqlanadi.

8. Ta'lim muassasasi faoliyatiga oid qo'shimcha ichki-lokal hujjatlar

Ta'lim muassasasida zaruratga ko'ra turli tarmoqlarni aniq tartibga soluvchi, ayrim jihatlarni batafsil bayon etuvchi yoki turli tartiblar belgilovchi hujjatlar, shu jumladan, nizomlar, yo'riqnomalar boshqa ichki lokal hujjatlar ishlab chiqilishi mumkin.

Mazkur hujjatlar pedagogik kengash qaroriga asosan ta'lim muassasasi direktori buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasasi faoliyatiga oid qo'shimcha ichki-lokal hujjatlar ta'lim muassasasi direktori tomonidan saqlanadi.

9. Ta'lim muassasasining o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi

Ta'lim muassasasining o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasida ta'lim muassasasining asosiy maqsadi va vazifalari, faoliyat bilan bog'liq eng muhim masalalar, istiqboldagi rejalar, shuningdek, o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini amalga oshirish chora-tadbirlari belgilanadi.

Ta'lim muassasasi ish rejasi pedagogik kengash qaroriga asosan direktor tomonidan tasdiqlanadi.

Ish reja bajarilganligi yuzasidan o'quv yili yakuni bo'yicha hisobot har yili 1-iyulga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalariga topshiriladi.

10. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr) va pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarida bolalar musiqa va san'at maktabi faoliyati bilan bog'liq eng muhim masalalarni muhokama qilish, muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalarini shakllantirish hamda kun tartibidagi boshqa masalalar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishlar va qabul qilingan qarorlar rasmiylashtiriladi.

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanib, Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali kengash kotibi tomonidan yuritiladi.

Pedagogik kengash mazkur Yo'riqnomalarga 1-ilovaga muvofiq nizom asosida faoliyat ko'rsatadi.

11. Ta'lim muassasasi xodimlarining lavozim yo'riqnomalari

Ta'lim muassasasi xodimlarining lavozim yo'riqnomalari har bir xodimning majburiyatlari, huquqlari va javobgarligini belgilovchi hujjat bo'lib, Madaniyat

vazirligi tomonidan tasdiqlangan “Bolalar musiqa va san’at maktablari xodimlarining namunaviy lavozim yo‘riqnomalari” asosida ishlab chiqiladi.

12. Ta’lim muassasasining shtatlar jadvali

Ta’lim muassasasining shtatlar jadvali doimiy xodimlar lavozimlari va bo‘sh o‘rinlar nomlarining soni va lavozim maoshlarining miqdorlari ko‘rsatilgan ro‘yxatni o‘z ichiga oladigan, byudjet tashkiloti tomonidan tuziladigan hujjat hisoblanadi.

13. Ta’lim muassasasining xarajatlar smetasi

Ta’lim muassasasining xarajatlar smetasi byudjet mablag‘larini taqsimlovchi tomonidan o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlarining va byudjet mablag‘lari oluvchilarning xarajatlari asosida tuziladigan xarajatlar smetasi hisoblanadi.

Xarajatlar smetasi byudjet tashkilotlari tomonidan ularga tegishli moliya yili uchun yetkazilgan byudjetdan ajratiladigan mablag‘lar hajmi doirasida tuziladi.

14. O‘qish uchun to‘lovlardan ozod etish va o‘qituvchi hamda konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya bayonnomalari yig‘ma jildi (reyestr) va komissiya bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali

O‘qish uchun to‘lovlardan ozod etish va o‘qituvchi hamda konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash bo‘yicha komissiya bayonnomalarida o‘quvchilarni to‘lovlardan ozod etish, o‘qituvchi va konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash masalalariga oid yig‘ilishlar rasmiylashtiriladi.

Komissiya bayonnomalari elektron shaklda (matn ko‘rinishida) tayyorlanib, Komissiya raisi va a‘zolari tomonidan imzolanadi hamda yig‘ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Komissiya bayonnomalarini ro‘yxatga olish jurnali ip o‘tkazib bog‘lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Komissiya bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro‘yxatga olish jurnali o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari (mas’ul kotib) tomonidan yuritiladi.

15. Bitiruvchilarga o‘qishni tugatganligi to‘g‘risida berilgan guvohnomalarni qayd etish kitobi

Bitiruvchilarga o‘qishni tugatganligi to‘g‘risida berilgan guvohnomalarni qayd etish kitobida bitiruvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi, tug‘ilgan sanasi, yo‘nalishi, mutaxassisligi, o‘qishga kirgan va tamomlagan yili, amaldagi rasmi va imzosi hamda tegishli bitiruv guvohnomalari to‘g‘risidagi ma’lumotlari qayd etib boriladi.

Kitob havorang pastali sharikli ruchkada qo‘lyozma shaklida yoziladi.

Kitob ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Bitiruvchilar guvohnomalarini qayd etish kitobi o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan saqlanadi.

16. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish daftari

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish daftarida murojaatning tartib raqami va kelib tushgan sanasi, murojaat etuvchi jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, yuridik shaxsning nomi, murojaatning qisqacha mazmuni, ijrosi to'g'risidagi belgi, shuningdek boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish daftari kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan qat'iy nazorati olib boriladi.

17. Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr) va ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali

Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalarida ota-onalar bilan ta'lim muassasasi rahbariyati o'rtasida o'quv-tarbiyaviy masalalarga oid o'tkaziladigan yig'ilishlar rasmiylashtiriladi.

Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi.

18. Mehnat shartnomalari va mehnat daftarchalarini (mavjud bo'lsa) hisobga olish kitobi

Mehnat shartnomalari va mehnat daftarchalarini (mavjud bo'lsa) hisobga olish kitobida xodimning familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi, mehnat shartnoma sanasi va raqami hamda mehnat daftarchasini qabul qilish va topshirishga oid ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Kitob ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Mehnat daftarchalari ta'lim muassasasi direktori tomonidan seyfda saqlanadi.

19. Ta'lim muassasasi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarni qayd etish jurnali

Ta'lim muassasasi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarni qayd etish jurnalida ta'lim muassasasi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarning sanasi, raqami, qisqacha mazmuni, kimga va qaysi tashkilotga berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Jurnal ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Ta'lim muassasasi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarni qayd etish jurnali kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi.

20. Ta'lim muassasasi direktori bilan o'quvchilar ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga tuzilgan shartnomalarni ro'yxatga olish jurnali

Ta'lim muassasasi direktori bilan o'quvchilar ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga tuzilgan shartnomalarni ro'yxatga olish jurnalida o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, mutaxassisligi, sinfi, shartnoma sanasi va raqami to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Jurnal ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Shartnomalarni ro'yxatga olish jurnali kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi.

21. Faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalarni ro'yxatga olish jurnali

Faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalarni ro'yxatga olish jurnalida ta'lim muassasasi tomonidan berilgan faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalar turi, sanasi, raqami, kimga berilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar qayd etib boriladi.

Jurnal ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalarni ro'yxatga olish jurnali kotiba-ish yurituvchi tomonidan yuritiladi.

III. O'quv-tarbiya jarayonlarni tashkil etishga oid hujjatlar

1. O'quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlar yig'ma jildi (reyestr) va farmoyishlarni ro'yxatga olish jurnali

O'quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlarda o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining o'quv jarayonlarini tashkil etishga oid topshiriqlari, shu jumladan, o'quvchilarni o'qituvchilarga taqsimoti, texnik sinovlar va akademik konsertlar, sinfdan-sinfga ko'chirish va bitiruv imtihonlari jadvali, bo'linmalar yig'ilishlari, pedagogik kengashlar o'tkazish sanasi, o'qituvchi-o'quvchilarni maktabdan tashqari turli tadbirlarga jalb etish farmoyishlari qayd etib boriladi.

O'quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlar elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Farmoyishlarni ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

O'quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlar va mazkur farmoyishlarni ro'yxatga olish jurnali o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi.

2. Ta'lim muassasasining tasdiqlangan o'quvchilar kontingenti

Ta'lim muassasasining o'quvchilar kontingentida ro'yxat shaklida o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, mutaxassisligi, sinfi qayd etiladi.

Ta'lim muassasasining o'quvchilar kontingenti elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan bir yilda bir marta – sentyabr oyida tasdiqlanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

3. Ta'lim muassasasining umumiy soatlar rejasi (setkasi)

Ta'lim muassasasining o'quv yili uchun mo'ljallangan umumiy soatlar rejasi (setkasi)da yo'nalishlar, mutaxassisliklar, fanlar va sinflar kesimida o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda yakka va guruhli dars soatlari tuziladi.

Ta'lim muassasasining umumiy soatlar rejasi elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Ta'lim muassasasining umumiy soatlar rejasi (setkasi) O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejaları va o'quv rejalariga tushuntirishlar asosida ishlab chiqiladi.

4. O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxati

O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxatida pedagog kadrlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumoti, tamomlagan ta'lim tashkiloti nomi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, dars berayotgan yo'nalishi, (mutaxassisligi), malaka toifasi, bazaviy tarif stavkasi, haftalik soatlar yuklamasi, umumiy stavkasi, ish haqi miqdori va umumiy oylik ish haqi ko'rsatiladi.

Tarifikatsiya ro'yxati ta'lim muassasasining tarifikatsiya komissiyasi tomonidan imzolanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari bilan kelishgan holda direktor tomonidan tasdiqlanadi.

O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxatini ishlab chiqish mazkur Yo'riqnomalarga 2-ilovaga muvofiq nizom asosida amalga oshiriladi.

5. O'qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlari qaydnomasi

O'qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlari qaydnomasida har bir o'qituvchi va konsertmeysterning haftalik dars soatlari qayd etiladi.

Haftalik yuklama soatlari qaydnomasida o'quvchilarning harakati va o'quv soatlari, o'qituvchilar va konsertmeysterlarning haftalik yuklamasi bajarilishi va o'zgarishi yuritib boriladi.

Haftalik yuklama soatlari qaydnomasi elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

Haftalik yuklama soatlari qaydnomasi o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi hamda o'quv yili yakunida sinf jurnallari bilan birga ta'lim muassasasi arxivida saqlanadi.

6. Ta'lim muassasasining umumiy dars jadvali

Ta'lim muassasasining qog'oz (A4 yoki A3) shakldagi va devoriy umumiy dars jadvallarida hafta kunlari kesimida o'qituvchi va konsertmeysterlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, o'quv fani nomi, sinf xonasi raqami va dars mashg'ulot vaqtlari ko'rsatiladi.

Umumiy dars jadvallari ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

7. Ta'lim muassasasining guruhli dars jadvali

Ta'lim muassasasining qog'oz (A4 yoki A3) shakldagi va devoriy guruhli dars jadvallari hafta kunlari kesimida o'qituvchi va konsertmeysterlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, o'quv fani nomi, o'quvchilar sinfi, guruh nomi, sinf xonasi raqami va dars mashg'ulot vaqtlari ko'rsatilgan holda ishlab chiqiladi.

Guruhli dars jadvallari ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

8. Yakka va guruhli sinf jurnallari

Yakka va guruhli sinf jurnallarida o'qituvchining dars jadvali, o'quvchilarning o'zlashtirishi va davomati yuritib boriladi.

Jurnal o'qituvchi va konsertmeysterlarning amalda o'tgan dars mashg'ulotlarini asoslovchi muhim hujjat bo'lib, ularning ish haqini hisoblashda asosiy hujjat hisoblanadi.

Sinf jurnallari o'quv yili yakunida haftalik yuklama soatlari qaydnomasi bilan birga ta'lim muassasasi arxivida saqlanadi.

Yakka va guruhli sinf jurnallarini yuritish mazkur Yo'riqnomalarga 3-4-ilovalarga muvofiq yo'riqnomalar asosida amalga oshiriladi.

9. O'zgargan soatlar bo'yicha bildirgi

O'zgargan soatlar bo'yicha bildirgi ta'lim muassasasining o'quv va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tuziladigan hujjat bo'lib, unda o'qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlarida oyning hisobot davri davomida yuzaga kelgan o'zgarishlar qayd etiladi. Ushbu hujjat asosida ta'lim muassasasi direktori buyruq chiqaradi.

Pedagog xodimlarning ish vaqtini hisobga olish jadvali va mehnatga haq to'lash tizimida haftalik yuklamadagi barcha o'zgarishlar – qo'shimcha to'lov, ushlab qolish, vaqtinchalik almashtirish va boshqa holatlar – faqat direktor o'rinbosarining bildirgisi va direktor buyrug'i asosida rasmiylashtiriladi.

Tabelga kiritiladigan asosiy ma'lumotlar:

Haftalik yuklamadagi o'zgarishlar – o'quvchining chetlashtirilishi, o'qishni ko'chirish yoki yangi o'quvchi qabul qilinishi, shuningdek, xodim ishdan bo'shatilishi yoki yangi xodim qabul qilinishi natijasida yuklamadagi soatlar o'zgarishi.

Ushlab qolishlar – o'qituvchi yoki konsertmeyster tomonidan o'tilmagan mashg'ulotlar, o'quvchilarning dars qoldirishi yoki boshqa sabablarga ko'ra o'tkazilmagan dars soatlarining amaldagi miqdori.

Qo'shimcha to'lovlar – xodimlarni vaqtincha almashtirish, boshqa ishga o'tkazish, noto'g'ri hisoblangan yoki qayta tiklangan soatlar, ta'lim jarayoniga bog'liq qo'shimcha darslar va ular uchun to'lanadigan soatlar.

Tabelda o'qituvchilarning yuklamasini to'g'ri aks ettirish muassasaning moliyaviy ta'minoti uchun juda muhim. Chunki o'quvchiga to'g'ri keladigan ta'lim dasturi yuklamasi asosida budjet mablag'i shakllantiriladi. Agar haqiqiy yuklama va rejalashtirilgan yuklama o'rtasida tafovutlar paydo bo'lsa, bu mablag' yetishmovchiligiga olib kelishi va ta'lim jarayoni sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli barcha o'zgarishlar o'z vaqtida qayd etilishi shart. Yuklama o'rtasidagi nomuvofiqliklar mablag' yetishmasligi va ta'lim jarayoni sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishining oldini olish uchun tezkorlik bilan qayd etilishi kerak.

10. O'qituvchi va konsertmeysterlar tabeli

Ish vaqtdan foydalanishni hisobga olish tabeli – har bir xodimning haqiqiy ishlagan soatlarini qayd etuvchi asosiy hujjat bo'lib, ish haqini hisoblashda muhim manba hisoblanadi.

Mazkur hujjat tabelni to'ldirish tartibi va qismlarini tushuntirish, shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktabi pedagog xodimlarining ish vaqtini hisobga olishning asosiy tushunchalari va tamoyillarini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan. Unda ushbu ta'lim muassasalari faoliyatining o'ziga xos jihatlari, pedagoglarning mehnatiga haq to'lash tizimi hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar inobatga olingan.

Tabelda pedagog xodimning mehnat shartnomasi va lavozim yo'riqnomasida ko'rsatilgan vazifalarga muvofiq sarflangan haftalik dars soatlari qayd etiladi. Bu mashg'ulotlar o'quvchilar bilan individual, guruhli yoki ansamblli tarzda olib borilgan darslarni qamrab oladi.

Metodik ishlar, mashg'ulotlarga tayyorgarlik, konsert va tanlovlarda qatnashish, hakamlik qilish, malaka oshirish kabi boshqa vazifalar, asosan, ta'til vaqtida amalga oshiriladi va ular haftalik o'quv yuklamasi hisobidan qoplanadi.

Ish vaqtdan chetga chiqish yoki qo'shimcha soatlar uchun haq to'lash masalalari ham alohida e'tibor talab qiladi. Bunga quyidagilar kiradi:

kasallik varaqalari, asosiy va qo'shimcha ta'tillar, ish haqi saqlanmaydigan ta'tillar, xizmat safarlari, o'quv ta'tillari, mehnat qonunchiligida ko'rsatilgan boshqa asoslar.

Har bir holat tabelda maxsus shartli belgilarda ifodalanadi.

Tabelning ish haqi bo‘limi bevosita haqiqiy ishlangan vaqtga asoslanadi. Shu ma’lumotlar orqali pedagoglarga belgilangan maosh, ustama, qo‘shimcha haqlar, mukofot va boshqa to‘lovlar hisoblab chiqiladi.

Tabelni yuritishda mas’ullar aniqlik, sinchkovlik va me’yoriy hujjatlar talablariga qat’iy amal qilishlari lozim. Hujjatni muntazam tekshirib borish va xatolarni o‘z vaqtida tuzatish – xodimlar bilan tushunmovchiliklarning, shuningdek, nazorat organlari tomonidan bildirilishi mumkin bo‘lgan e’tirozlarning oldini oladi hamda pedagog xodimlarning mehnatiga adolatli haq to‘lanishini ta’minlaydi.

11. Ma’muriy-xo‘jalik xodimlar tabeli

Ma’muriy-xo‘jalik xodimlar tabeli – bu xodimlarning ishlangan vaqtini aniq qayd etuvchi va ish haqini hisoblashda asos bo‘lib xizmat qiluvchi hujjatdir.

Tabelning asosiy jihatlari:

Hisobga olish davri oy boshidan oxirigacha bo‘lgan davr.

Xodim ma’lumotlari familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi.

Hisobot kunlari oyning har bir kuni uchun ustunlar.

Ish vaqti hisoboti ishlangan vaqt, har kuni ishlagan soatlar soni, ta’til va kasallik ta’tili kunlari, ishlanmagan kunlar va boshqa holatlar.

Shartli belgilar turli ish vaqtlarini (ishlangan, ishlanmagan, ta’til, kasallik va boshqalar) belgilash uchun maxsus belgilar qo‘llaniladi.

Umumiy ma’lumotlar:

ishlangan soatlarning umumiy soni (ayniqsa qorovullar uchun),
ta’til kunlari,

kasallik kunlari va boshqa turdagi vaqt hisoblari.

Imzolar:

Tabeldagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi tegishli xodim va rahbarning imzolari bilan tasdiqlanadi.

12. Yakka tartibdagi o‘quv mashg‘ulotlari uchun shaxsiy ish rejasi

Yakka tartibdagi dars mashg‘ulotlarini olib boradigan o‘qituvchilar har bir o‘quvchiga o‘quv yili uchun shaxsiy ish rejasi tuzadilar.

Shaxsiy ish rejasi o‘quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda har bir o‘quvchining o‘ziga xos ijodiy dasturini ishlab chiqadigan hujjat hisoblanadi.

Shaxsiy ish rejasi o‘quv yilining yarim yilligi bo‘yicha tuziladi hamda bo‘linma mudiri bilan kelishiladi, o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Yakka tartibdagi o‘quv mashg‘ulotlari uchun shaxsiy ish rejasini tuzish mazkur Yo‘riqnomalarga 5-ilovaga muvofiq yo‘riqnoma asosida amalga oshiriladi.

13. San'at yo'nalishlari uchun o'zlashtirish tabeli

San'at yo'nalishlari uchun o'zlashtirish tabeli guruhli tartibdagi dars mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchilar har bir o'quvchiga o'zlashtirish tabeli yuritadi.

O'zlashtirish tabeli o'quvchilarning choraklik, imtihon va yillik baholarini qayd etib boradigan hujjat hisoblanadi.

O'zlashtirish tabeli san'at yo'nalishlari uchun 1-sinfdan boshlab tuziladi hamda birlashtirilgan fan o'qituvchisi tomonidan yuritadi.

Boshqa ta'lim o'qishini ko'chirganida yoki boshqa ta'lim muassasasidan o'qishini ko'chirib kelganida ushbu tabel asosida ko'chirish komissiyasi qaroriga asosan qabul qilinadi.

14. Guruhli fanlar bo'yicha taqvimiy ish rejasini

Guruhli tartibda dars mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchilar guruhli fanlar bo'yicha taqvimiy ish rejasini tuzadilar.

Taqvimiy ish rejasida o'quv dasturlari bo'yicha har bir guruhli dars mashg'ulotining mavzusi, sanasi va soati ko'rsatiladi.

Taqvimiy ish rejasini o'quv yili bo'yicha tuziladi hamda bo'linma mudiri bilan kelishiladi, o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Taqvimiy ish rejasini tuzish mazkur Yo'riqnomalarga 6-ildovaga muvofiq yo'riqnomaga asosida amalga oshiriladi.

15. Jamoa ijrochiligi fanlari (xor, orkestr, ansambl) bo'yicha repertuar rejalari

Jamoa ijrochiligi fanlari (xor, orkestr, ansambl) bo'yicha repertuar rejalari jamoalar tomonidan ijro etiladigan asarlar ro'yxati belgilanadi.

Repertuar rejalari o'quv yilining yarim yilligi bo'yicha tuziladi hamda o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

16. Qabul sinovlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash qaydnomasi

Qabul sinovlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash qaydnomasida o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan sanasi, oyi va yili shuningdek qabul komissiyasi ota-onaning arizasida ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishi nomi (musiqqa yo'nalishida), sinovlarida aniqlangan ijodiy qobiliyatlariga qo'yilgan ball va izoh qismida "o'qishga tavsiya etildi" yoki "o'qishga tavsiya etilmadi" yozuvlari kiritiladi.

Ijodiy qobiliyatlari quyidagi talablar bo'yicha qabul sinovlarida aniqlanadi:

musiqqa (fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi) yo'nalishi bo'yicha musiqqa ritmiga moslashishi, qo'shiq aytishi, musiqani eshitishi va eslab qolishi;

san'at yo'nalishlari:

xoreografiya bo'yicha jismonan ma'qulligi (tana va oyoqlarning egiluvchanligi), ritmga moslashishi, musiqani eshitishi;

tasviriy va amaliy san'at mutaxassisliklari bo'yicha tasavvuridagi narsa-buyum yoki manzarani chiza olishi;

teatr san'ati mutaxassisliklari bo'yicha she'r yoki monologni yoddan ifodali o'qishi va ovoz yoki harakatga nisbatan taqlid qila olishi komissiya a'zolari tomonidan qaydnomada 5 ballik tizimda yuqorida belgilangan talablar asosida baholanib boriladi va yakuniy natijalari komissiyaning bayonnomalariga kiritiladi.

Har o'quv yiliga qabul qilingan o'quvchilar qaydnomalari komissiya a'zolari tomonidan imzolanib, qabul jarayonlari yakunlanganidan so'ng hujjatlar o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarida saqlanadi.

17. Ta'lim muassasasining qabul komissiyasi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr) va qabul komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali

Ta'lim muassasasining qabul komissiyasi bayonnomalarida qabul sinovlaridagi o'quvchining ijodiy qobiliyatini aniqlash qaydnomasiga asosan o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, mutaxassisligi va sinfini ko'rsatgan holda o'qishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida qabul komissiyasining qarori rasmiylashtiriladi.

Qabul komissiyasining ijobiy qaroriga asosan ta'lim muassasasi direktori o'quv yili boshlangunga qadar o'quvchini o'qishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Qabul komissiyasi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanib, komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Qabul komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Qabul komissiya bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (mas'ul kotib) tomonidan yuritiladi.

Komissiyasi tomonidan qabul sinovlarini o'tkazish mazkur Yo'riqnomalarga 7-ilovaga muvofiq tartib asosida amalga oshiriladi.

18. O'quvchilarning o'qishini bir ta'lim yo'nalishidan boshqasiga ko'chirish komissiyasi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr) va ko'chirish komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali

O'quvchilarning o'qishini bir ta'lim yo'nalishidan boshqasiga ko'chirish komissiyasi bayonnomalarida ta'limning birinchi va ikkinchi yilida bir ta'lim yo'nalishidan boshqasiga o'tkazishda o'quvchining mazkur yo'nalish bo'yicha davlat ta'lim talablarining minimal darajasini bilishi natijalariga asosan o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, yo'nalishi, mutaxassisligi, sinfi va ijro dasturini ko'rsatgan holda o'qishni ko'chirish yoki ko'chirishni rad etish to'g'risida qarori rasmiylashtiriladi.

Ko'chirish komissiyasining qarori ijobiy bo'lgan taqdirda, unga asosan ta'lim muassasasi direktori o'quvchini tanlagan ta'lim yo'nalishiga o'tkazish to'g'risida buyruq chiqaradi.

Ko'chirish komissiyasi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanib, komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Ko'chirish komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Ko'chirish komissiyasi bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (mas'ul kotib) tomonidan yuritiladi.

19. Akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari

Akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblarida o'quvchilarning akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlaridagi ijro dasturlari va baholari qayd etiladi.

Kitoblarda akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini a'lo bahoga topshirmagan o'quvchilarga komissiyaning fikr-mulohazalari aks ettiriladi.

Akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitobi bo'linma boshliqlari tomonidan har bir bo'linmalar kesimida alohida yuritiladi.

Kitob havorang pastali sharikli ruchkada qo'lyozma shaklida yoziladi.

Kitob ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

20. San'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari

San'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblarida o'quvchilarning ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlaridagi ijro dasturlari, mavzulari va baholari qayd etiladi.

Kitoblarda san'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini a'lo bahoga topshirmagan o'quvchilarga komissiyaning fikr-mulohazalari aks ettiriladi.

San'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitobi bo'linma boshliqlari tomonidan har bir bo'linmalar kesimida alohida yuritiladi.

Kitob havorang pastali sharikli ruchkada qo'lyozma shaklida yoziladi.

Kitob ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

21. Ta'lim muassasasi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari yig'ma jildi (reyestr)

Ta'lim muassasasi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlarida yo'nalishlar, mutaxassisliklar va sinflar kesimida o'quvchilarning familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan holda barcha fanlar bo'yicha choraklik, yillik, imtihon va yakuniy baholari qayd etib boriladi.

O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari har chorak yakuni va umumiy o'quv yili bo'yicha elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

O'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi.

22. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'linmalar (uslubiy birlashmalar) ish rejasi, o'qituvchi va konsertmeysterlar yig'ilishi bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr), uslubiy ma'ruza va ochiq darslar bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr), ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari yig'ma jildi (reyestr), bo'linmalar yig'ilishlari bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali.

Bo'linmalar yig'ilish bayonnomalarida bo'linma boshlig'i huzuridagi yig'ilishlar, uslubiy ma'ruza va ochiq darslar muhokamalari hamda ota-onalar yig'ilishlari rasmiylashtiriladi.

Bo'linmalar ish rejasi, o'qituvchi va konsertmeysterlar yig'ilishi bayonnomalari, uslubiy ma'ruza va ochiq darslar bayonnomalari, ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi va yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Bo'linmalar huzuridagi barcha yig'ilish bayonnomalari yagona jurnalda ro'yxatga olinib boriladi. Jurnal ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

Bo'linmalar ish rejasi, o'qituvchi va konsertmeysterlar yig'ilishi bayonnomalari, uslubiy ma'ruza va ochiq darslar bayonnomalari, ota-onalar yig'ilishlari bayonnomalari bo'linma boshliqlari tomonidan yuritiladi, bo'linma ish rejasi ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadi.

23. Ta'lim muassasasi tomonidan o'tkazilgan turli tadbirlar hujjatlari (ijro dasturlari, fotolavhalar, ma'lumotnomalar va boshqalar)

Ta'lim muassasasi tomonidan o'quv yili davomida o'tkazilgan turli tadbirlar hujjatlari (ijro dasturlari, fotolavhalar, ma'lumotnomalar va boshqalar) elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

Ta'lim muassasasi tomonidan o'tkazilgan turli tadbirlar hujjatlari o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan yuritiladi.

IV. Xodimlarining shaxsiy hujjatlari

Xodimlarining shaxsiy hujjatlari kotiba-ish yurituvchi yoki buyruq asosida kadrlar bilan ishlash vazifasi yuklangan xodim tomonidan seyfa yoki temir javonda saqlanadi.

Xodimlarining shaxsiy hujjatlari har uch yilda yangilab boriladi.

V. O'quvchilarning shaxsiy hujjatlari

O'quvchilarning shaxsiy hujjatlari o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan saqlanadi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari Pedagogik kengashi to'g'risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 5-maydagi 144-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimidagi bolalar musiqa va san'at maktablarining namunaviy ustavini tasdiqlash to'g'risida" 2017-yil 22-iyundagi 361-son buyrug'i hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ishlab chiqilgan.

2. Ushbu Nizom bolalar musiqa va san'at maktablari (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasasi) pedagogik kengashining maqsadi, vazifalari, huquq va majburiyatlari, kengashni tashkil etish hamda faoliyat ko'rsatish tartibini belgilaydi.

3. Pedagogik kengash o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining qarorlari va buyruqlariga, "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi Nizom"ga, ta'lim muassasasining Ustaviga, ushbu Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qiladi.

4. Pedagogik kengash ta'lim muassasasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

5. Pedagogik kengashning qarorlari ta'lim muassasasining barcha pedagog xodimlari uchun majburiy hisoblanadi.

II. Pedagogik kengashning maqsadi va vazifalari

6. Pedagogik kengashning asosiy maqsadi ta'lim muassasasi faoliyati bilan bog'liq eng muhim masalalarni muhokama qilish, ta'lim sifatini oshirishni ta'minlash, muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalarni belgilashdan iborat.

7. Pedagogik kengashning vazifalari quyidagilardan iborat:

ta'lim muassasasining ta'lim mazmuni, o'qitish shakllari, uslublari va vositalari, tarbiyaviy ishlarni tashkil etish masalalari hamda o'quv yili uchun mo'ljallangan ish rejasini muhokama qilish va qarorlar qabul qilish;

ta'lim muassasasi faoliyati natijalarini tahlil qilish va baholash, muammolarni aniqlash va ularni hal etish yo'llarini belgilash;

ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyasini belgilash, rivojlantirish dasturlari, innovatsion loyihalar va tajribalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

turli tarmoqlarni aniq tartibga solish, ayrim jihatlarni batafsil bayon etish yoki turli tartiblar belgilash maqsadida ishlab chiqilgan hujjatlar, shu jumladan, nizomlar, yo'riqnomalar va boshqa ichki lokal hujjatlarni muhokama qilish;

ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish va ta'lim jarayonlariga joriy etish hamda pedagog xodimlar malakasini oshirish bo'yicha choralar belgilash;

pedagog xodimlarni mukofotlash va rag'batlantirishga taqdim etish masalalarini ko'rib chiqish;

ta'lim oluvchilar va pedagog xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish;

ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan tanlovlar, festivallar, ko'rgazmalar va boshqa tadbirlarni tashkil etish va o'tkazishga ko'maklashish;

ta'lim muassasasidagi ta'lim oluvchilarning ota-onalari (qonuniy vakillari), jamoat tashkilotlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorligi masalalarini ko'rib chiqish;

ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini takomillashtirish, pedagog xodimlarning mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ta'lim muassasasi pedagog xodimlarining ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini oshirish, metodik ishlarni takomillashtirish va ta'lim oluvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha choralar belgilash;

ta'lim jarayonining asosiy masalalarini ko'rib chiqish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish, shuningdek, ta'lim muassasasi faoliyati bilan bog'liq boshqa masalalarni hal etish.

III. Pedagogik kengash faoliyatini tashkil etish

8. Pedagogik kengash tarkibiga bolalar musiqa va san'at maktabining direktori va pedagog xodimlari kiritiladi.

9. Pedagogik kengashga ta'lim muassasasi direktori raislik qiladi. Direktor bo'lmagan vaqtda raislikni direktorning o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari amalga oshiradi.

10. Pedagogik kengashning raisi kengash qabul qilgan qarorlarning bajarilishini doimiy ravishda nazorat qilib boradi.

11. Pedagogik kengashning yig'ilishlari bir o'quv yili mobaynida kamida besh marta o'tkaziladi.

12. Pedagogik kengash a'zolariga pedagogik kengash yig'ilishlarida qatnashish, pedagogik kengash kun tartibiga qo'yilgan masalalarni muhokama qilishda faol ishtirok etish va pedagogik kengash qarorlarini bajarish majburiyatlari yuklanadi.

13. Pedagogik kengash faoliyatini tashkiliy jihatdan ta'minlash kotib zimmasiga yuklanadi, pedagogik kengash kotibi pedagog xodimlar orasidan saylanadi va ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

14. Pedagogik kengash kotibi pedagogik kengash yig'ilishlarini tayyorlashni amalga oshiradi, pedagogik kengash bayonnomalarini yuritadi va rasmiylashtiradi hamda pedagogik kengash qarorlarini manfaatdor shaxslar e'tiboriga yetkazadi.

15. Kotib tomonidan pedagogik kengash yig'ilishi o'tkaziladigan sanasi, vaqti va kun tartibi to'g'risida kengash a'zolariga yig'ilish o'tkazilishidan kamida 5 kun oldin yetkaziladi.

16. Pedagogik kengash yig'ilishi, agar unda pedagogik kengash a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etsa, vakolatli hisoblanadi.

17. Pedagogik kengash qarorlari pedagogik kengash a'zolarining oddiy ko'pchilik ovoz berishi yo'li bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan taqdirda, pedagogik kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

18. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanib, Kengash raisi va kotibi tomonidan imzolanadi.

19. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari yig'ilishga oid hujjatlar (hisobotlar, loyihalar, chora-tadbirlar, ish rejalar va boshqalar) bilan birga yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

20. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

21. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali kengash kotibi tomonidan yuritiladi va saqlanadi.

22. Pedagogik kengash muhokamasiga kiritiladigan ayrim masalalarni tayyorlash uchun pedagogik kengash a'zolari orasidan, shuningdek boshqa mutaxassislarni jalb etgan holda komissiyalar yoki turli ishchi guruhlar tuzilishi mumkin.

IV. Pedagogik kengashning huquq va majburiyatlari

23. Pedagogik kengashning huquqlari quyidagilardan iborat:

o'quv jarayonini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha qarorlar qabul qilish;

o'quv yili yakunida o'quvchilarni keyingi sinfga ko'chirish yoki sinfda qoldirish masalalarini hal etish;

o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-metodik va tajriba-sinov ishlarida faol ishtirok etgan pedagog xodimlarni moddiy rag'batlantirish yuzasidan taklif bildirish;

pedagog xodimlarning malaka toifasini oshirish bo'yicha tavsiyalar berish;

ko'rik-tanlovlar, festivallar, ustoz saboqlari, mahorat darslari va boshqa tadbirlarda o'qituvchi-o'quvchilarning ishtirok etishlari uchun nomzodlarni tavsiya etish;

o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish;

ta'lim muassasasining istiqbol rejasini belgilash.

24. Pedagogik kengash qonun hujjatlariga hamda o'z vazifalariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

25. Pedagogik kengashning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

ta'lim muassasasining ish rejasini ijrosi bo'yicha belgilangan tartibda hisobotlar tinglash;

pedagog xodimlar va o'quvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;

umumiy faoliyatga oid eng muhim va dolzarb masalalarni muhokama qilish;

ta'lim-tarbiya sifatini yanada yaxshilash bo'yicha berilgan har qanday taklifni qabul qilish va ko'rib chiqish;

dars mashg'ulotlari ish rejasini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishga qulay bo'lishi nuqtayi nazaridan takomillashtirish;

ta'lim-tarbiyaga oid munozarali masalalarni muhokama qilish va yakuniy qarorlar qabul qilish;

zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo'yicha pedagogik izlanishlarni va ijodiy tashabbuskorliklarni qo'llab-quvvatlash;

o'quv jarayonini samarali tashkil qilishning turli shakl va uslublarini muhokama qilish va amaliyotga tatbiq etish;

pedagog xodimlarga maktabdan tashqari ta'limga oid normativ-huquqiy va metodik hujjatlarning yetkazilishi va tushuntirish ishlarining olib borilishini nazorat qilish.

V. Yakunlovchi qoidalar

26. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

27. Ushbu Nizom talablarini buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.

**Bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchi va konsertmeysterlarining
tarifikatsiya ro'yxatini ishlab chiqish to'g'risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bolalar musiqa va san'at maktablari rahbar, o'qituvchi va konsertmeysterlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tizimini takomillashtirish to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4468-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" 2005-yil 21-dekabrdagi 275-son va "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 5-maydagi 144-son qarorlari, shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablarining o'quv reja va dasturlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan o'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxatini ishlab chiqish tartibini belgilaydi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar musiqa va san'at maktablari xodimlari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish to'g'risida" 2012-yil 3-maydagi 127-son qarorida bolalar musiqa va san'at maktablari (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasasi) o'qituvchilari va konsertmeysterlariga pedagogik yuklama boshlang'ich sinflar o'qituvchilari va konsertmeysterlariga – haftasiga 24 soat, yuqori sinflar o'qituvchilari va konsertmeysterlariga – haftasiga 20 soat etib belgilangan.

3. Quyidagi asoslarga ko'ra mehnatga haq to'lash shartlari o'zgartiriladi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari asosida o'qituvchi va konsertmeysterlarning ish haqi miqdorlari oshirilganda;

malaka toifasi berilganda (tegishli attestatsiya komissiyasi qarori qabul qilingan kundan boshlab);

"Xalq", "Xizmat ko'rsatgan arbob", "Xizmat ko'rsatgan artist", "Xizmat ko'rsatgan" faxriy unvoni berilganda (Faxriy unvonlar uchun ish haqiga qo'shib berish bo'yicha hujjatlar taqdim etilgan oydan keyingi oyning 1-kunidan boshlab amalga oshiriladi);

fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD), fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasini olganda;

bir stavka uchun belgilangan haftalik o'quv yuklama miqdori o'zgarganda.

4. Ta'lim muassasasida o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda mutaxassis o'qituvchilar diplom bo'yicha mutaxassisligiga mos bo'lgan umumkasbiy (mutaxassislik fanidan tashqari) fanlardan dars mashg'ulotlarini olib borishlari mumkin.

5. O'qituvchi va konsertmeysterlarining tarifikatsiya ro'yxati ta'lim muassasasi kontingenti va tasdiqlangan o'quv rejalar asosida ishlab chiqiladi.

Bunda, ta'lim muassasasining ichki imkoniyati va pedagog kadrlar tarkibi inobatga olinadi.

6. O'qituvchi va konsertmeysterlarining tarifikatsiya ro'yxati o'quv yili va moliya yili boshida, shuningdek, mehnatga haq to'lash o'zgarganda ishlab chiqiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Qolgan holatlarda (yangi pedagog kadrlar ishga qabul qilinganda, o'qituvchining o'quv yuklamasi o'zgarganda, soatlar boshqa o'qituvchilarga yuklanganda yoki vakantga olinganda) ta'lim muassasasining ichki buyrug'i asosida amalga oshirib boriladi.

II. Tarifikatsiya komissiyasini tashkil etish

7. O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxatini ishlab chiqish maqsadida ta'lim muassasasi direktorining buyrug'i bilan 5-7 kishidan iborat tarkibda tarifikatsiya komissiyasi tuziladi.

Tarifikatsiya komissiyasi tarkibiga ta'lim muassasasi direktori, direktorning o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (mas'ul kotib), bosh buxgalter, kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi va pedagog xodimlar kiritiladi. Ta'lim muassasasi direktori tarifikatsiya komissiyasi raisi hisoblanadi.

8. Tarifikatsiya komissiyasi o'z faoliyatini mazkur nizomga va amaldagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asosan olib boradi.

9. Tarifikatsiya komissiyasi o'quv yili davomida faoliyat ko'rsatadi. Komissiya tarkibida o'zgarish bo'lganda tarifikatsiya komissiyasi tarkibi qaytadan tasdiqlanadi.

III. Tarifikatsiya komissiyasi faoliyati

10. Tarifikatsiya komissiyasi yig'ilishining kun tartibi, shu jumladan, tarifikatsiya ro'yxatlarini tuzish ishlarini muvofiqlashtirish, yig'ilishlarni o'tkazish muddati va vaqtlari komissiya raisi tomonidan belgilanadi.

11. Komissiya kotibi quyidagi tashkiliy ishlarni amalga oshiradi:
tarifikatsiya ro'yxatini ishlab chiqishga oid bo'lgan hujjatlarini tayyorlash;
komissiyaning navbatdagi yig'ilishi o'tkazilishini tashkil etish;
yig'ilish o'tkazish joyi, sanasi va vaqti to'g'risida komissiya a'zolarini kamida 3 kun oldin xabardor qilish;
tarifikatsiya ro'yxatini rasmiylashtirish.

12. Komissiya kotibi o'qituvchi va konsertmeysterlarning shaxsga oid hujjatlari nusxalarini alohida yig'ima jild shaklida komissiya a'zolariga taqdim etadi.

13. Komissiya kotibi tarifikatsiya komissiyasi ish boshlashidan kamida 7 kun oldin o'qituvchilar va konsertmeysterlarning pedagogik yuklamalari (haftalik yuklama soatlari qaydnomasida) ko'rsatilgan tarifikatsiya ro'yxati loyihasini tayyorlaydi.

14. Komissiya a'zolarining vazifalari quyidagilardan iborat:

o'qituvchilar va konsertmeysterlarning hujjatlari, soatlari va bazaviy tarif stavkalarini ko'rib chiqish;

tarifikatsiya ro'yxatida kompensatsiya to'lovlari (iqlim, nogiron bolalar bilan ishlash va boshqalar) miqdorlarining qonun hujjatlarida belgilangan me'yorlarga muvofiqligini ko'rib chiqish;

komissiya yig'ilishlarida ishtirok etish, zaruratga ko'ra tarifikatsiya ro'yxatiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish;

tarifikatsiya ro'yxatini tasdiqlangan shaklga muvofiqligi ta'minlash hamda belgilangan tartibda rasmiylashtirish.

IV. Tarifikatsiya ro'yxati

15. O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifikatsiya ro'yxatida pedagog kadrlarning familiyasi, ismi va otasining ismi, oliy yoki o'rta maxsus ma'lumoti, tamomlagan ta'lim tashkiloti nomi, diplom bo'yicha mutaxassisligi, dars berayotgan yo'nalishi, (mutaxassisligi), malaka toifasi, bazaviy tarif stavkasi, haftalik soatlar yuklamasi, umumiy stavkasi, ish haqi miqdori va umumiy oylik ish haqi ko'rsatiladi.

16. Tarifikatsiya ro'yxatida o'qituvchilar va konsertmeysterlarga haftalik yuklamalari belgilanadi.

17. O'qituvchilar va konsertmeysterlarning haftalik soatlari mehnat qonunchiligida belgilangan ish vaqti normasidan oshmasligi lozim.

18. Ta'lim muassasasining umumiy soatlar rejasi (setkasi) bo'yicha taqsimlanmagan soatlar tarifikatsiya ro'yxatida vakant soat sifatida ko'rsatiladi.

19. Homiladorlik, tug'ish va bolani parvarishlash ta'tillarida bo'lgan pedagog xodimlar mehnat qonunchiligiga ko'ra tarifikatsiya ro'yxatiga kiritiladi hamda ularga kamida bir stavka miqdorida o'quv dars soatlari ajratiladi.

20. O'quv yili davomida yangi ishga qabul qilingan o'qituvchilar va konsertmeysterlarga mos vakant soatlari beriladi.

21. Tarifikatsiya ro'yxatiga asosan o'quv soatlar taqsimoti direktor buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

22. Tarifikatsiya ro'yxati ta'lim muassasasining tarifikatsiya komissiyasi tomonidan imzolanadi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Toshkent shahar va viloyatlar madaniyat boshqarmalari bilan kelishgan holda direktor tomonidan tasdiqlanadi.

23. Tarifikatsiya ro'yxati ta'lim muassasasi arxivida 10 yil davomida saqlanadi.

V. Yakunlovchi qoidalar

24. Mazkur Nizom bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

25. Ushbu Nizom talablarini buzilishida aybdor bo‘lgan shaxslar qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida yakka tartibdagi sinf jurnallarini yuritish bo'yicha YO'RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Sinf jurnali o'qituvchilarning dars soatlari mazmuni, sifati va hajmini belgilovchi asosiy hujjatdir.

2. Sinf jurnali ikki muhim vazifani bajaradi. O'quvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish jarayoni natijalarini ko'rsatish bilan birga o'qituvchi va konsertmeysterning oylik yuklamasini hisob-kitob qiluvchi moliyaviy hujjat hisoblanadi.

3. O'qituvchining mehnat samaradorligi sinf jurnalining rasmiylashtirilishiga bog'liq, bular:

o'quv fani dasturini bajarilishi;

o'quvchilarning joriy va oraliq attestatsiyadan o'tishi;

uy vazifalarini taqsimlanishi (guruh darslarda);

o'quvchining qoldirgan darslari haqida ma'lumotlarning aniqligi.

4. Bundan tashqari, sinf jurnallarida o'tgan darslar uchun ish haqi to'lovlari: ta'til vaqtidagi ishi hamda almashish yo'li bilan ishlagani uchun ko'rsatilgan ish soatlar haqi to'g'riligi aniqlanadi. Sinf jurnalining 2-ta turi mavjud. Guruh darslari uchun hamda yakka tartibdagi darslar uchun jurnallar (bundan keyin – jurnal deyiladi).

5. Sinflar raqamlanishi arab raqamlarida amalga oshiriladi:

7-yillik o'qish muddatida – 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7;

5-yillik o'qish muddatida – 1/5; 2/5; 3/5; 4/5; 5/5.

6. Jurnal bir o'quv yiliga mo'ljallangan.

7. Jurnallar maktabda 5 yil davomida saqlanadi, muddat o'tganidan so'ng Pedagogik kengash qarori bilan utilizatsiya qilinadi.

II. Jurnal to'ldirish qoidalari

8. Jurnal titul varag'ida fan mutaxassisligi, maktabning to'liq nomi, tuman, shahar, o'quv yili, o'qituvchining familiyasi, ism va sharifi ko'rsatiladi.

9. Jurnal yuritish qoidalari betida o'qituvchi Tanishganligi to'g'risida imzo qo'yadi.

10. Jurnalidagi barcha yozuvlar havorang pastali sharikli ruchkada aniq va o'zgartirishsiz yoziladi. Har xil siyohlarning bir betda ishlatilishi man qilinadi. O'chirg'ich va shtrixlarni ishlatish man etiladi.

O'quvchining baholarida yo'l qo'yilgan xatolik kabi istisno holatlarda kiritilgan tuzatishlar jurnal oxiridagi "Izohlar" sahifasida o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari imzosi bilan "tuzatilgan" degan yozuv qayd qilinadi.

11. O'quvchining familiyasi va ismi dars jadvali bo'yicha yoziladi.

12. Konsertmeysterning familiyasi, ismi va otasining ismi uning ish kunlariga mos ravishda ish vaqti (boshlanishi va tugashi) ko'rsatilgan holda alohida ajratilgan ustunga yoziladi.

13. Dars jadvali dastlab qalam bilan yoziladi, darsning boshlanishi va tamom bo'lishi ko'rsatiladi, 10 kun ichida esa ruchka bilan yoziladi.

14. Dars jadvali tuzilganida darslar orasida 5 daqiqalik tanaffus kiritiladi.

15. Ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan dars jadvali tasdiqlangandan so'ng, agar jadvalga o'zgartirish kiritish zarurati tug'ilsa, o'qituvchi bu o'zgarishni ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan kelishgan holda, jurnal shakliga mos bo'lgan qo'shimcha varaqda amalga oshirishi mumkin. Ushbu varaq o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan imzolanib tasdiqlanadi va so'ng jurnalga ilova qilinadi.

16. Jurnal yuritilishi bir o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, ta'til kunlarini o'z ichiga oladi (kunlar kalendar bo'yicha belgilanadi). O'qituvchi har bir sahifaga oy nomini kiritadi hamda o'quvchilar ro'yxatidan oldin fanlar nomi yoziladi.

17. Agar barcha o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quvchilarning familiyalarini kiritish uchun bitta sahifada joy yetarli bo'lmasa, har bir oy uchun ketma-ket ikki varaqdan foydalanishga ruxsat beriladi.

18. O'quvchilarning davomati va o'zlashtirishi har bir darsda quyidagi belgilar bilan qayd etiladi: "–" (kelmadi), "b" (darsda bo'ldi) yoki ("2", "3", "4", "5") o'zlashtirish baholari qayd etib boriladi:

Bunda, bitta fan bo'yicha dars jadvalida ketma-ket 1,5 yoki 2 soatgacha dars mashg'ulotlari belgilangan taqdirda, davomat ustunida bitta "b" belgisi qayd etiladi.

19. Jurnalidagi fan nomlari va ularni o'zlashtirish uchun ajratilgan haftalik soatlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv rejasiga muvofiq bo'lishi shart.

20. Dars sanalari choraklar bo'yicha taqsimlanadi.

21. O'qituvchi o'quvchilarning bilimini muntazam tekshirib baholashi hamda darsda qatnashganlarni belgilashi shart, chorak baholari joriy baholar asosida qo'yiladi (baholar chorak davomida 5 tadan kam bo'lmasligi kerak).

22. Konsertmeyster o'zining ish kunlarini tegishli fan o'qituvchisining sinf jurnalidagi ismi va familiyasi yoniga ishlagan soatlarini ko'rsatgan holda imzo qo'yadi:

Konsertmeysterning davomati va ularning ish kunlari qayd qilinishini ta'minlash fan o'qituvchisi zimmasiga yuklanadi.

23. Yakka tartibdagi darslarda o'qituvchining o'rniga turli sabablarga ko'ra boshqa o'qituvchi dars o'tganda, vaqtinchalik dars jadvali tuzilib, o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari imzosi bilan tasdiqlanadi va asosiy o'qituvchi jurnaliga ilova qilinadi, o'rindosh o'qituvchilar ishlagan kunlarda o'quvchilar davomatini belgilaydi, pastiga o'z imzosini qo'yadi hamda ishlagan soatlari miqdorini ko'rsatadi.

24. O'qituvchi asosli sabablarga ko'ra darsda bo'lmagan taqdirda o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan o'tilmagan dars soatlari bo'yicha izoh yoziladi.

25. Ta'til davrida, karantinda, iyun oyida (mehnat ta'tilidan oldin) dars davomati ustuniga "uslubiy ish" yozuvi kiritiladi hamda o'qituvchi va konsertmeyster imzosi qo'yiladi.

26. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, o'quvchilar ro'yxatidagi barcha o'zgarishlarni belgilaydi, "o'quvchilar safidan chiqarildi", "o'tkazildi", "akademik ta'tilda" shular jumlasidandir. O'zgartirishlar sanasi ko'rsatiladi, masalan "15 – oktabrda o'quvchilar safidan chiqarildi" (o'quvchilarga oid buyruqlar yig'ma jildiga asosan sana ko'rsatiladi).

27. Jurnalning oxirgi betlarini o'qituvchi yakuniy baholar bilan rasmiylashtirib, "sinfga o'tkazildi", "maktabni tamomladi" yozuvlarini kiritishi shart.

28. Faqatgina mutaxassislik fani o'qituvchisi o'z jurnalining oxirgi betida o'quvchilar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'liq kiritadi.

III. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari uchun sinf jurnallarining yuritilish nazoratini tashkil etish bo'yicha eslatma

29. Direktorning o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari o'z ishini o'qituvchi va konsertmeyster (illyustratorlar)ning oylik o'quv yuklamasini hisoblash bilan amalga oshiradi, shuningdek o'qituvchilarning jurnal yuritilishini nazorat qiladi.

30. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'quv yili boshida hamda zarurat bo'lganda o'quv yili davomida sinf jurnalini yuritish bo'yicha o'quv seminarlar tashkil etiladi.

Jurnallarni tekshirish davrida quyidagi jihatlarga e'tibor berishi lozim:

jurnaldagi yozuvlar o'z vaqtida va to'g'ri yuritilishi;

baholash tizimining to'g'riligi;

dars almashuvining rasmiylashtirishi to'g'riligi;

darslardagi o'quvchilar davomati;

o'quvchilar ro'yxatidagi o'zgarishlar (o'quvchilarni safdan chiqarish, boshqa guruhga o'tkazish) va boshqalar.

31. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan haftalik bajarilgan o'quv yuklama hisoblanib, jurnalga yozib qo'yiladi. Ushbu yozuv jurnalning o'ng tomonida izohlar grafasiga kiritiladi. Yuklama soatlari qaydnomasi bilan solishtirilgandan so'ng, sanalar grafasi pastiga imzo qo'yiladi.

32. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan o'qituvchining sinf jurnali o'z vaqtida yuritilmaganligi yoki konsertmeyster (illyustrator)ning imzosi qo'yilmaganligi aniqlansa, (dars mashg'ulotlari o'tilgan taqdirda ham), direktor o'rinbosari jurnalda qayd etilmagan soatlarni o'qituvchi va konsertmeyster (illyustrator)ga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga asosan o'rtacha oylik ish haqining o'ttiz foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda jarima qo'llash huquqiga ega.

33. O'quv yuklama hajmi va uning bajarilishini hisoblashda, oyma-oy ish haqini belgilash tabelini tuzadi va direktorga joriy oy uchun ish haqi to'lash to'g'risida buyruq berish uchun bildirgi taqdim etadi.

34. O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari o'quv yili oxirida barcha sinf jurnallarini maktab direktoriga topshiradi.

**Bolalar musiqa va san'at maktablarida guruhli sinf jurnallarini yuritish
bo'yicha
YO'RIQNOMA**

I. Umumiy qoidalar

1. Sinf jurnali o'qituvchining dars soatlari mazmuni, sifati va hajmini belgilovchi asosiy hujjatdir.

2. Sinf jurnali ikki muhim vazifani bajaradi. O'quvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish jarayoni natijalarini ko'rsatish bilan birga o'qituvchi va konsertmeysterning oylik yuklamasini hisob-kitob qiluvchi moliyaviy hujjat hisoblanadi.

3. O'qituvchining mehnat samaradorligi sinf jurnalining rasmiylashtirilishiga bog'liq, bular:

o'quv fani dasturining bajarilishi;

o'quvchilarning joriy va oraliq attestatsiyadan o'tishi;

uy vazifalarining taqsimlanishi (guruh darslarda);

o'quvchining qoldirgan darslari haqida ma'lumotlarning aniqligi.

4. Bundan tashqari, sinf jurnallarida o'tgan darslar uchun ish haqi to'lovlari: ta'til vaqtidagi ishi hamda almashish yo'li bilan ishlagani uchun ko'rsatilgan ish soatlar haqi to'g'riligi aniqlanadi. Sinf jurnalining 2 turi mavjud: guruh darslari uchun hamda yakka tartibdagi darslar uchun jurnallar (bundan keyin – jurnal deyiladi).

5. Sinflar raqamlanishi tartibi arab raqamlarida amalga oshiriladi:

7 yillik o'qish muddatida – 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7;

5 yillik o'qish muddatida – 1/5; 2/5; 3/5; 4/5; 5/5.

6. Jurnal bir o'quv yiliga mo'ljallangan.

7. Jurnallar maktabda 5 yil davomida saqlanadi, muddat o'tganidan so'ng Pedagogik kengash qarori bilan utilizatsiya qilinadi.

II. Jurnal to'ldirish qoidalari

8. Jurnal titul varag'ida fan mutaxassisligi, maktabning to'liq nomi, tuman, shahar, o'quv yili, o'qituvchining familiyasi, ism va otasining ismi ko'rsatiladi.

9. Jurnal yuritish qoidalari betida o'qituvchi tanishganligi to'g'risida imzo qo'yadi.

10. Jurnalda barcha yozuvlar havorang pastali sharikli ruchkada aniq va o'zgartirishsiz yoziladi. Har xil siyohlarning bir betda ishlatilishi hamda o'chirg'ich va shtrixlarni ishlatish man etiladi.

O'quvchining baholarida yo'l qo'yilgan xatolik kabi istisno holatlarda kiritilgan tuzatishlar jurnalning "Uyga berilgan vazifa" ustunida o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari imzosi bilan "tuzatilgan" degan yozuv qayd qilinadi.

11. Har chorakda dars jadvali dastlab qalam bilan yoziladi, darsning boshlanishi va tamom bo'lishi ko'rsatiladi, 10 kun ichida esa ruchka bilan yoziladi.

12. Dars jadvali tuzilganida darslar orasida 5 daqiqalik tanaffus kiritiladi.

13. Ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan dars jadvali tasdiqlangandan so'ng, agar jadvalga o'zgartirish kiritish zarurati tug'ilsa, o'qituvchi bu o'zgarishni ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan kelishgan holda, jurnal shakliga mos bo'lgan qo'shimcha varaqda amalga oshirishi mumkin. Ushbu varaq o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan imzolanib tasdiqlanadi va so'ng jurnalga ilova qilinadi.

14. Konsertmeysterning familiyasi, ismi va otasining ismi uning ish kunlariga mos ravishda ish vaqti (boshlanishi va tugashi) ko'rsatilgan holda alohida ajratilgan ustunga yoziladi.

III. Guruhli darslar jurnali

15. Jurnalning sarlavha sahifasida quyidagi yozuvlar kiritiladi:

a) maktab nomi (___-son bolalar musiqa va san'at maktabi);

b) fan nomi;

d) guruh yo'nalishi va raqami, masalan, 1/5b; 1/5a, 2/5b, va h.k.;

e) o'qituvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, konsertmeysterning familiyasi, ismi va otasining ismi;

f) o'quv yili.

16. O'quvchilarning familiyasi va ismi (to'liq) alifbo tartibida ketma-ket yoziladi.

17. Dars sanalari choraklar bo'yicha taqsimlanadi va arab raqamlari bilan ko'rsatiladi (masalan: 05.09.25).

18. O'qituvchi o'quvchilarning bilimini muntazam tekshirib baholashi hamda darsda qatnashganlarni belgilashi shart, chorak baholari joriy baholar asosida qo'yiladi (baholar chorak davomida 3 tadan kam bo'lmasligi kerak).

19. Dars boshida davomat qilingan vaqtda darsga kelmagan o'quvchiga tegishli katakchaga "-" belgisi qo'yiladi. Agar o'quvchi darsga kechikib kelsa "-" belgisi "+" belgiga almashtiriladi.

20. O'quvchilarning davomati va o'zlashtirishi har bir darsda quyidagi belgilar bilan qayd etiladi: "2", "3", "4", "5", "-". Jurnalda baholarni "+", "-" boshqa belgilar bilan birga qo'yilishiga ruxsat berilmaydi.

21. Baholanmadi “b/m” belgisi chorak yakunida o‘quvchining 3 ta joriy bahosi bo‘lmagan va 50% dan ortiq dars qoldirgan holatdagina qo‘yilishi mumkin.

22. Jurnalidagi fan nomlari va ularni o‘zlashtirish uchun ajratilgan haftalik soatlar O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan o‘quv rejasiga muvofiq bo‘lishi shart.

23. Guruh mashg‘ulotlari jurnalining o‘ng sahifasida dars sanasi, dars mavzusi va uyga vazifa yoziladi.

24. Konsertmeyster o‘zining ish kunlarini tegishli fan o‘qituvchisining sinf jurnalidagi ismi va familiyasi yoniga ishlagan soatlarini ko‘rsatgan holda imzo qo‘yadi.

Konsertmeysterning davomati va ularning ish kunlari qayd qilinishini ta’minlash fan o‘qituvchisi zimmasiga yuklanadi.

25. Konsertmeyster har bir ish kunida familiyasiga parallel ravishda bajarilgan soatlar sonini ko‘rsatgan holda har bir guruhga alohida o‘z imzosini qo‘yadi.

26. Choraklar hamda yillik yakuniy baholar o‘qituvchi imzosi bilan tasdiqlanadi.

27. Ishda bo‘lmagan o‘qituvchining guruhli darslari o‘rniga o‘tgan o‘qituvchi jurnalning o‘ng tomoniga o‘tilgan dars mavzusini “taqvimiy ish-reja”ga muvofiq yozadi, shuningdek, “almashuv” so‘zini kiritib, imzolaydi.

28. Guruh darslar jadvalini almashuv davrida o‘zgartirish qat’iyan man etiladi.

29. O‘qituvchi asosli sabablarga ko‘ra darsda bo‘lmagan taqdirda o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan o‘tilmagan dars soatlari bo‘yicha izoh yoziladi.

30. Konsertmeyster mavjud bo‘lgan fan va yo‘nalishlarda (xor, ansambl, orkestr, xoreografiya va boshqalar) o‘qituvchi kasal bo‘lib, uning o‘rnini boshqa o‘qituvchi bosa olmasa, konsertmeyster o‘z xizmat vazifasiga asosan darsni o‘tkazadi va dars o‘tkazilgan sanaga mos ravishda o‘quvchilar ro‘yxati pastiga imzo qo‘yadi.

31. Konsertmeyster asosli sabablarga ko‘ra darsda bo‘lmagan taqdirda, o‘rnini bosgan konsertmeyster dars o‘tkazilgan sana ostiga soatlar miqdorini ko‘rsatgan holda o‘quvchilar ro‘yxatidagi dars sanasi pastiga imzo qo‘yadi.

32. Ta’til davrida, karantinda, iyun oyida (mehnat ta’tilidan oldin) dars davomati ustuniga “uslubiy ish” yozuvi kiritiladi hamda o‘qituvchi va konsertmeyster imzosi qo‘yiladi.

33. O‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, o‘quvchilar ro‘yxatidagi barcha o‘zgarishlarni belgilaydi, “o‘quvchilar safidan chiqarildi”, “o‘tkazildi”, “akademik ta’tilda” shular jumlasidandir. O‘zgartirishlar sanasi ko‘rsatiladi, masalan “15 – oktabrda o‘quvchilar safidan chiqarildi” (o‘quvchilarga oid buyruqlar yig‘ma jildiga asosan sana ko‘rsatiladi).

34. Jamoaviy ijro shaklidagi barcha repetitsiya (yig‘ma) mashg‘ulotlari dars jadvalidan tashqarida o‘tkaziladi va jurnalning alohida belgilangan sahifasida o‘tkazilgan sanasi ko‘rsatilgan holda qayd etiladi.

IV. O‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari uchun sinf jurnallarining yuritilish nazoratini tashkil etish bo‘yicha eslatma

35. Direktorning o‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari o‘z ishini o‘qituvchi va konsertmeysterning haftalik o‘quv yuklamasini hisoblash bilan amalga oshiradi, shuningdek o‘qituvchilarning jurnal yuritilishini nazorat qiladi.

36. O‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘quv yili boshida hamda zarurat bo‘lganda o‘quv yili davomida sinf jurnalini yuritish bo‘yicha o‘quv seminarlar tashkil etishi lozim.

37. Jurnallarni tekshirish davrida quyidagi jihatlarga e‘tibor berishi lozim:

jurnaldagi yozuvlar o‘z vaqtida va to‘g‘ri yuritilishi;

baholash tizimining to‘g‘riligi;

dars almashuvining rasmiylashtirishi to‘g‘riligi;

darslardagi o‘quvchilar davomati;

o‘quvchilar ro‘yxatidagi o‘zgarishlar (o‘quvchilarni safdan chiqarish, boshqa guruhga o‘tkazish) va boshqalar.

38. O‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan haftalik bajarilgan o‘quv yuklama hisoblanib, jurnalga yozib qo‘yiladi. Ushbu yozuv jurnal oxiridagi izoh varag‘iga yozib boriladi. Yuklama soatlar qaydnomasi bilan solishtirilgandan so‘ng imzo qo‘yiladi.

39. O‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan o‘qituvchining sinf jurnali o‘z vaqtida yuritilmaganligi yoki konsertmeysterning imzosi qo‘yilmaganligi aniqlansa, (dars mashg‘ulotlari o‘tilgan taqdirda ham), direktor o‘rinbosari jurnalda qayd etilmagan soatlarni o‘qituvchi va konsertmeysterga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga asosan o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima qo‘llash huquqiga ega.

40. Haftalik yuklama hajmi o‘zgarganda va uning bajarilishini hisoblashda, o‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari oyma-oy ish haqini belgilash tabelini tuzadi va direktorga joriy oy uchun o‘zgarishlarni hisobga olgan holda ish haqi to‘lash to‘g‘risida buyruq berish uchun bildirgi taqdim etadi.

41. O‘quv-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari o‘quv yili oxirida barcha sinf jurnallarini ta‘lim muassasasi direktoriga topshiradi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarining musiqa yo'nalishida tahsil olayotgan o'quvchilar uchun shaxsiy ish reja tuzish bo'yicha YO'RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun yagona tartibdagi shaxsiy ish rejalarini shakllantirilishini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq shaxsiy ish reja – har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim dasturini amalga oshirishni ta'minlovchi hujjat hisoblanadi. Shaxsiy ish reja har yili o'qituvchilar tomonidan har bir o'quvchi uchun alohida tarzda ishlab chiqiladi va ta'lim olishi davomida amal qiladi.

3. Shaxsiy ish rejani tuzishda yagona yondashuvni ta'minlash o'quvchilarning erishgan natijalarini rejalashtirish va monitoring qilish, ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, o'quv jarayonining mazmunini tasdiqlangan ta'lim dasturlariga mos holda olib borilishini ta'minlaydi.

4. Shaxsiy ish rejaning asosiy tamoyillari va vazifalari quyidagilar iborat:

individual yondashuv – shaxsiy ish reja har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlari, o'zlashtirish sur'ati, qiziqishlari va maqsadlarini inobatga olgan holda reja tuziladi va o'quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi;

natijaga yo'naltirilganlik – shaxsiy ish reja muayyan vaqt davomida yarim yillik yoki o'quv yili davomida o'quvchi erishishi kerak bo'lgan aniq va ravshan natijalarni o'z ichiga oladi;

moslashuvchanlik – shaxsiy ish reja dasturini tizilishda o'quvchining kasalliklar, tanlovlarda ishtirok etish yoki qiziqishlar o'zgarishini inobatga olgan holda dasturlarga o'zgartirish kiritiladi;

kelishilgan – shaxsiy ish reja O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlangan bolalar musiqa va san'at maktablari Davlat ta'lim talablari dasturiga va o'quvchining individual xususiyatlariga muvofiqlashtirilgan bo'lishi kerak.

II. Shaxsiy ish rejasini yuritish tartibi

5. Shaxsiy ish rejalarini tuzish va yuritish yakka tartibdagi mutaxassislik fanlar bo'yicha ta'lim olib borayotgan barcha o'qituvchilar uchun majburiy talab hisoblanadi.

6. Shaxsiy ish reja shakli o'quvchining barcha fanlarini qamrab olgan holda to'liq o'quv kursi uchun mo'ljallangan bo'ladi.

7. Shaxsiy ish reja o'quv yilining birinchi va ikkinchi yarim yilligi uchun tuziladi hamda bo'linma mudiri bilan kelishiladi, o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

8. Shaxsiy ish reja aniq, tushunarli yozuv bilan, havorang pastali sharikli ruchkada qo'lyozma shaklida yoziladi.

9. Xatoga yo'l qo'yilgan holatda turli o'chirg'ichdan (shtrix) foydalanish taqiqlanadi. Imlo xatoga yo'l qo'yilganda xato so'z qavs ichiga olinib, to'g'ri yozuv bilan davom ettiriladi.

III. O'quvchining shaxsiy ish rejasini rasmiylashtirish

10. O'qituvchi shaxsiy rejaning muqova (titul) varag'i, birinchi beti va o'quv yillari bo'yicha quyidagi ma'lumotlarni to'ldiradi:

o'quvchining individual rejasi muqova varag'ida ta'lim muassasasi joylashgan shahar (viloyat), tuman va maktabning to'liq nomi hamda o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi yoziladi.

11. Ichki qism birinchi varag'i chap yuqori burchagiga 3x4 o'lchamdagi o'quvchining fotosurati yopishtiriladi va quyidagi ma'lumotlar to'ldiriladi:

o'quvchining familiya, ism va otasining ismi, tug'ilgan yil, oy, kuni, qabul vaqtidagi sog'lig'i haqida ma'lumot, umumta'lim maktab raqami va ta'lim olayotgan sinfi, yashash manzili, ota-onasi telefon raqamlari, ota-onasining familiya, ism va otasining ismi yoziladi.

12. O'quvchi shaxsiy ish rejasi "Ijodiy sinov natijalari" 1-jadvalida quyidagi 1-sinfga qabul qilingan o'quvchilar uchun eshitish qobiliyati, ritm, xotira, intonatsiya;

2-sinf va undan yuqori sinflarga qabul qilinuvchilar uchun: musiqiy tayyorgarligi (mutaxassislik, notani varaqdan o'qish, solfedjio fanlari) qabul imtihoni natijalari, qabul komissiya bayonnoma raqami va sanasi, boshqa holatlarda ko'chirish komissiyasi qarori, ta'lim muassasasidan chetlashtirilgan sana va chetlashtirish sababi kiritiladi;

2-jadvalda ta'lim muassasasiga qabul qilish haqidagi buyruq raqami va sanasi, ta'lim muassasasini bitirganligi to'g'risidagi direktorning buyruqlar sanasi va raqami hamda berilgan guvohnoma seriyasi va raqami yoziladi;

o'qishini boshqa bolalar musiqa va san'at maktabiga ko'chirilish, o'qishdan chetlashtirilganda yoki o'z xohishiga binoan o'qishni davom ettirmaganda direktorning buyruq raqami va sanasi yoziladi;

13. O'qish sinfiga mos ravishda oraliq titul varag'ini to'ldirishda shahar (viloyat), tuman va maktab nomi to'liq yoziladi shuningdek, sinfi, mutaxassisligi, o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda o'qituvchining familiyasi va ismi yoziladi.

14. O‘qituvchi mutaxassislik bo‘yicha quyidagi asar shakllari haqida yozuvlarni kiritadi:

Cholg‘u ijrochiligi mutaxassisliklari bo‘yicha:

pyesalar;

gamma, mashq, etyudlar;

polifoniya;

yirik shakldagi asar;

notani varaqdan o‘qish.

Xonandalik (vokal) bo‘yicha:

vokaliz, ovoz mashqlari;

solfedjio kuylash (1 va 2 ovozli);

a`capella;

milliy kuylar;

xorijiy asarlar.

15. Boshqa fanlardan yakka tartibda dars olib boriladigan fan o‘qituvchilari (ansambl, akkompament, umumiy fortepiano, ovoz qo‘yish, tanlangan fan) bo‘yicha shaxsiy ish rejaning alohida ajratilgan sahifalariga repertuar dasturi kiritadi.

IV. Repertuar dasturi

16. O‘quvchilarga repertuar tuzishda asarlar soni o‘quv dasturlarida keltirilgan minimal miqdordan kam bo‘lmasligi lozim.

Asarlarning murakkablik darajasi o‘quvchining yoshi va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda dastur talablarga yaqin bo‘lishi talab etiladi.

17. 1-sinf o‘quvchilari uchun birinchi yarim yillikda matn shaklida vazifalar, to‘plamlar ro‘yxati, ular ichidagi asar raqamlari bilan ko‘rsatiladi (apparatni shakllantirish, musiqiy savodxonlik asoslari, shtrixlar o‘rganish);

repertuar ro‘yxati o‘quv dasturlaridan o‘quvchining texnik darajasiga mos repertuar o‘qituvchi ko‘rsatgan shakllar tartibida tuziladi;

har bir asar muallifining familiyasi va ismi qisqartirilgan holda ko‘rsatiladi (majburiy);

tonalliklar lotin yozuvida yoziladi.

V. Bajarilgan ishlar bo‘yicha hisobotni rasmiylashtirish.

18. Repertuar dasturi ro‘yxatidagi “bajarilganligi haqidagi belgi” ustuniga quyidagi yozuvlar kiritiladi:

“bajardi” yoki “bajarmadi” – asarning yoddan ijro etilgan holda sinfda topshirilishi holatida nazorat belgisi sifatida ishlatiladi;

“tanlov” – tanlovlarda ijro etilgan asarlar uchun ishlatiladi;

“tanishtirildi” – notadan o‘qib ijro etilgan asar uchun qo‘llaniladi;

“almashtirildi” – bir asar boshqa asarga almashtirilgan holatda yoziladi;

o‘quvchi o‘quv dasturini muvaffaqiyatli egallayotgan bo‘lsa, repertuar ro‘yxati qo‘shimcha asarlar kiritilishi mumkin.

19. Mutaxassislik fani bo‘yicha o‘quv rejada belgilangan tartibda texnik sinovlar va akademik konsertlar o‘tkaziladi va baholanadi.

20. Barcha yakka tartibda o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha sinovlar akademik konsert shaklida o‘tkaziladi va baholanadi.

21. Baholash besh ballik tizim bo‘yicha amalga oshiriladi.

2; 3; 4; 5 baholari texnik sinovlar, oraliq yoki yakuniy nazorat darslari, hamda akademik konsertlar uchun qo‘yiladi.

22. O‘quv yili yakunida o‘quv dasturlarining to‘liq bajarilganligi va ma’lumotlarning to‘g‘ri kiritilganligini mutaxassislik fani o‘qituvchisi va o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari tomonidan ko‘rib chiqilib imzo qo‘yiladi hamda direktor imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi.

VI. Akademik konsertlar, texnik sinovlar, ko‘chirish va bitiruv imtihonlari repertuarini to‘ldirish

23. O‘quvchining shaxsiy ish rejalarida texnik sinovlari, akademik konserti har yarim yilda o‘tkazilib baholanadi hamda baholanganligi to‘g‘risida izoh beriladi.

24. Tinglovlarda birinchi yarim yillik 1-sinf o‘quvchilari hamda bitiruvchi o‘quvchilarning ijro dasturlari texnik sinovlari va akademik konsert qismiga kiritiladi, ijrosi baholanmaydi, biroq ijro sifatiga izoh beriladi.

25. Shaxsiy ish rejaning ko‘chirish va yakuniy bitiruv imtihonlarini alohida belgilangan qismiga ijro dasturi va ijro bahosi hamda komissiya a’zolarining imzolari qo‘yiladi.

VII. O‘quvchi haqida tavsifnoma

26. O‘quvchining shaxsiy rejasi har yili mutaxassislik o‘qituvchisi boshqa fanlarni o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda fan o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqiladi.

VIII. Tavsifnomaning tuzilishi

27. Tavsifnomada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun musiqa qobiliyatining bahosi quyidagi eshitish qobiliyati, ritmni his qilish, eslab qolishi tahlili;

yuqori sinf o‘quvchilari uchun ushbu qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasi tahlili ko‘rsatiladi.

Shaxsiy ish rejaning tavsifnoma qismida o‘quvchining quyidagi:

o‘quv jarayoniga munosabati, uy vazifalarini bajarish sifati, mustaqil ishlash qobiliyati, musiqa matnini tahlil qilishdagi savodxonligi;

musiqiy materialni qabul qilish darajasi, diqqatni jamlash, darslardagi tartibliligi;

ijroning emotsionalligi, sahnadagi ishonch bilan ijro qilishi;

cholg‘uni o‘rganish darajasi, texnik tayyorgarligi;

o‘quv yili davomida erishilgan yutuqlari;

rejalashtirilgan repertuarni bajarganlik darajasi kabi jihatlari kiritiladi.

28. Baholar jadvali (o‘zlashtirish tabeli):

shaxsiy ish rejalar o‘quvchining barcha o‘quv yillari bo‘yicha baholar jadvalini o‘z ichiga oladi;

joriy o‘quv yili ko‘rsatiladi va barcha fanlar bo‘yicha baholar qo‘yiladi;

o‘quv yili yakunida, Pedagogik kengash qarori (bayonnoma raqami) kiritiladi.

IX. Nazorat va saqlash

29. O‘qituvchilar tomonidan shaxsiy ish rejalar o‘quv yili davomida ikki marta – 10-sentabr va 10-yanvargacha tasdiqlash uchun bo‘linma mudirlariga taqdim etiladi.

30. Bo‘lim mudiri repertuar ro‘yxati yuqori chap burchagiga “kelishildi” deb imzo qo‘yadi va o‘quv-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari repertuar ro‘yxati yuqori o‘ng burchagiga “tasdiqlayman” deb sana, oy, yilni ko‘rsatib imzo qo‘yadi.

31. O‘quvchi boshqa ta’lim muassasasiga o‘tkazilganda shaxsiy reja bilan birga o‘qiganligi to‘g‘risida ma’lumotnoma o‘quvchining ota-onasiga topshiriladi.

32. Maktabni tamomlaganidan so‘ng shaxsiy rejalar maktab arxiviga topshiriladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarining guruhli fanlar bo'yicha taqvimiy ish rejasini tuzish bo'yicha YO'RIQNOMA

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma bolalar musiqa va san'at maktablari uchun taqvimiy ish rejalarni shakllantirishning yagona tartibini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan.

2. Guruhli tartibda dars mashg'ulotlarini olib boradigan o'qituvchilar guruhli fanlar bo'yicha taqvimiy ish rejasini tuzadilar.

3. Taqvimiy ish rejasida o'quv dasturlari bo'yicha har bir guruhli dars mashg'ulotining mavzusi, sanasi va soati ko'rsatiladi.

4. Taqvimiy ish rejasi o'quv yili bo'yicha tuziladi hamda bo'linma mudiri bilan kelishiladi va o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

5. Taqvimiy ish reja o'quv dastur mavzularini o'rganish ketma-ketligini, o'quv jarayonini tashkil etish va o'quvchilar bilimini nazorat qilishni belgilaydi.

6. Yo'riqnomaning maqsadi guruh fanlari bo'yicha taqvimiy ish rejalarni tuzishda yagona yondashuvni ta'minlashdan iborat. Bu o'quvchilarning yutuqlarini pedagogik rejalashtirish va monitoring qilish sifatini oshirish, shuningdek, o'quv jarayoni mazmunining tasdiqlangan ta'lim dasturlariga muvofiqligini ta'minlash imkonini beradi.

7. Taqvimiy ish reja har yili davlat ta'lim talablari, ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv rejasi va o'quv dasturlari asosida tuziladi.

II. Taqvimiy ish reja tuzilishi

8. Taqvimiy ish reja quyidagilarni o'z ichiga oladi:

muassasa nomi, fan nomi, sinfi va soatlar miqdori, o'qituvchining familiyasi va ismi, o'quv yili yoziladi.

9. O'quv yili yakunida erishiladigan maqsadlar, vazifalar va kutilayotgan natijalari bo'yicha izoh yoziladi.

10. Taqvimiy ish rejaning jadval qismi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

tartib raqami, dars sanasi, dars mavzusi, ajratilgan soatlar miqdori va izoh.

11. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

III. Taqvimiy ish reja mazmuniga qo‘yladigan talablar

12. Mavzular har bir fan dasturiga mos kelishi kerak (solfedjio, musiqa adabiyoti, xoreografiya, tasviriy san‘at, teatr san‘ati, amaliy san‘at va boshqalar).

13. O‘quv materiallari choraklar va yarim yilliklar bo‘yicha teng taqsimlanadi.

14. Quyidagilar albatta nazarda tutiladi:

kirish mashg‘ulotlari, nazorat va sinov darslari, konsertlar, ko‘rgazmalar, namoyishlarga tayyorgarlik mashg‘ulotlari, umumlashtiruvchi mashg‘ulotlar.

IV. Rasmiylashtirish tartibi

15. Taqvimiy ish reja elektron (matn ko‘rinishida) yoki qo‘lyozma shaklda rasmiylashtiriladi.

16. Barcha o‘zgarishlar (mashg‘ulotlarni ko‘chirish, mavzularni almashtirish) “izoh” ustunida qayd etiladi.

17. O‘quv yili yakunida taqvimiy ish reja o‘qituvchi tomonidan o‘quv ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosariga sinf jurnallari bilan birga topshiriladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablariga o'quvchilarni qabul qilishda qabul komissiyasi tomonidan qabul sinovlarini o'tkazish

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur yo'riqnoma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2016-yil 5-maydagi 144-son qarori, shuningdek, bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatini tartibga soluvchi ta'lim dasturlari va me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

2. Mazkur yo'riqnoma bolalar musiqa va san'at maktablari (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasasi)ning birinchi va undan yuqori sinflariga qabul sinovlarini tashkil etish va o'tkazish tartibini belgilaydi.

3. Ijodiy sinovlarni o'tkazishdan maqsad bolalarning san'at sohasidagi ta'lim dasturlarini o'zlashtirishi va qobiliyatini aniqlashdan iborat.

4. Ta'lim muassasasi rahbariyati har yili iyun – avgust oylarida o'qishga qabul qilish ishlarini tashkil etadi.

II. Qabul komissiyasi tarkibi

5. Ta'lim muassasasida qabul sinovlari o'tkazish uchun muassasa direktorining buyrug'i bilan 5 kishidan iborat tarkibda qabul komissiyasi tuziladi:

komissiya raisi - muassasa direktori;

komissiya kotibi-direktorning o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari (zarur hujjatlarni tayyorlash va bayonnomalarni yuritish uchun mas'ul);

tegishli bo'lim bo'yicha bo'lim mudirlari va o'qituvchilar.

6. Ijodiy sinovlar ta'lim yo'nalishlar (musiqa, xoreografiya, tasviriy va amaliy san'at hamda teatr san'ati) bo'yicha alohida, tegishli mutaxassislar ishtirokida o'tkaziladi.

III. Ijodiy sinovlarga tayyorgarlik ko'rish

7. Ta'lim muassasasi direktori tomonidan ijodiy sinovlar jadvali tasdiqlanadi.

Qabul jarayonlari bo'lib o'tadigan xonalar mavjud yo'nalishlar bo'yicha jihozlanadi (cholg'ular, molbertlar, audio apparatura va boshqalar).

8. Komissiya ijodiy sinovlarni baholash mezonlari bilan oldindan tanishib chiqadi.

9. Har bir yo'nalishlar bo'yicha alohida baholash qaydnomalariga asosan yakuniy ijodiy sinov natijalari belgilangan shakldagi qaydnomalarda to'ldiradi.

10. Ota-onalar (qonuniy vakillar) ga ijodiy sinovlar jadvaliga asosan sana va vaqt oldindan ma'lum qilinadi.

IV. Sinovlarni tashkil etish va o'tkazish

11. Ta'lim muassasasiga o'qishga kirish uchun o'quvchining ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar (keyingi o'rinlarda ota-onalar deb ataladi) har yili 1-avgust – 25-avgust mobaynida qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

- a) ta'lim yo'nalishi (yo'nalishlari) ko'rsatilgan ariza;
- b) o'quvchining tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi nusxasi;
- d) o'quvchiga belgilangan shaklda berilgan tibbiy ma'lumotnoma;
- e) 3 x 4 o'lchamli 4 ta fotosurat.

12. Qabul komissiyasi ota-onaning arizasida ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'quvchining quyidagi ijodiy qobiliyatini qabul sinovlarida aniqlaydi:

13. Musiqa ta'lim yo'nalishlari (*fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'u ijrochiligi, xalq cholg'ulari, damli va zarbli cholg'ular, an'anaviy cholg'u ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi va baxshichilik san'ati mutaxassisliklari*) bo'yicha ijodiy sinovlarda;

musiqa ritmiga moslashishi, qo'shiq aytishi, musiqani eshitishi (tovush balandligini aniqlash, kuyni takrorlash), eslab qolishi va eshitish qobiliyati (musiqiy ohang va ritmik usulini eslab qolish hamda uni qaytarish) aniqlanadi.

14. San'at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar:

“Xoreografiya” mutaxassisligi bo'yicha;

jismonan ma'qulligi, jismoniy ko'rsatkichlar (tana va oyoqlarning egiluvchanligi, qaddi-qomat, egiluvchanlik, koordinatsiya), ritmga moslashishi (ritmik usulni his qilish), musiqani eshitishi (musiqa jo'rligida oddiy harakatlarni bajarish).

“Tasviriy va amaliy san'at” mutaxassisliklari bo'yicha;

tasavvuridagi narsa-buyum yasay olishi yoki chiza olishi, manzarani chiza olishi, ranglar gammasini bilishi va narsa buyumlarni to'g'ri joylashtirishi (komponovka), erkin mavzuda ijodiy topshiriqni bajarish.

“Teatr san'ati” mutaxassisligi bo'yicha;

she'r yoki monologni yoddan ifodali o'qishi (artistik, diksiya, mimikalarni ishlata olishi), ovozda taqlid qila olishi (odamlar, hayvonlar, qushlar, buyum va tovushlar), harakatga nisbatan taqlid qila olish (odamlar, hayvonlar hamda qushlar harakatida plastika va improvizatsiya qilishi), ritmga moslashishi (ritmik usulni his qilish) qabul sinovlarini topshiradi.

V. Ikkinchi va undan yuqori sinflariga qabul qilish

15. Ta'lim muassasasining ikkinchi va undan yuqori sinflariga qabul qilish uchun o'quvchilar qabul sinovlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Madaniyat

vazirligi tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturlari bo'yicha tegishli sinfdagi bilim darajasiga qo'yiladigan talablar asosida quyidagi fanlar bo'yicha:

a) musiqa yo'nalishlari (fortepiano, torli cholg'ular, estrada cholg'ular ijrochiligi, xalq cholg'ulari ijrochiligi, damli va zarbli cholg'ular ijrochiligi, an'anaviy cholg'ular ijrochiligi, an'anaviy xonandalik, akademik xonandalik, estrada xonandaligi, baxshichilik ijrochiligi) bo'yicha – mutaxassislik va solfedjio fani;

b) san'at ta'lim yo'nalishlari bo'yicha:

“Xoreografiya” yo'nalishi bo'yicha – mumtoz raqs, parter fanlari;

“Tasviriy va amaliy san'at” yo'nalishlari bo'yicha – chizmatasvir, rangtasvir, kompozitsiya fani;

“Teatr san'ati” yo'nalishi – aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna harakati fanlari. bo'yicha qabul sinovlarini topshiradi.

16. Qabul sinovlari har yili 31-avgustgacha o'quvchining ijodiy qobiliyatini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

17. Qabul komissiyasining har bir a'zosi shaxsiy baholash qaydnomasida besh ballik tizim bo'yicha o'z bahosini qayd etadi. Kotib har bir sinov turi bo'yicha umumiy to'plangan ballar miqdorini hisoblab chiqadi va qabul komissiyasining yakuniy bayonnomasiga kiritiladi.

VI. Natijalarni baholash va rasmiylashtirish

18. Ijodiy sinov natijalariga ko'ra qabul komissiya bayonnomasiga quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

o'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan yili, yo'nalish va mutaxassisligi, har bir mezon bo'yicha ballar, umumiy ball, xulosa (o'qishga qabul qilish uchun tavsiya etiladi / tavsiya etilmaydi).

19. 2-sinfga va undan yuqori sinfga o'qishga kiruvchilar uchun kirish sinovlari bayonnomasi quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan holda alohida rasmiylashtiriladi:

Musiqa yo'nalishlari bo'yicha:

mutaxassislikdan o'quvchining ijro dasturi (o'quv dasturlari bo'yicha tegishli sinfdagi bilim darajasiga qo'yiladigan talablar asosida bo'lishi lozim);

solfedjiodan, eshitib aniqlash va savollarga javob berish ko'nikmalarini baholash (test sinovi shakliga ruxsat beriladi).

San'at yo'nalishlari bo'yicha:

“Xoreografiya” yo'nalishi - klassik raqs, parter;

“Tasviriy va amaliy san'at” yo'nalishlari – qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya;

“Teatr san'ati” yo'nalishi - aktyorlik mahorati, sahna nutqi, sahna harakati fanlari ijro dasturi kiritiladi.

20. Komissiya qarorida bilim va ko'nikmalarga mos sinfga qabul qilishga tavsiya etiladi.

VII. Qabul yakunlari

21. Qabul komissiyasi bayonnomalar asosida ijodiy sinov natijalarining yig'ma qaydnomasini tuzadi.

22. O'quvchining sinovdan o'tgan yoki o'tmaganligi qabul komissiyasi a'zolarining ochiq ovoz berishi yo'li bilan aniqlanadi. Qabul komissiyasi a'zolarining ko'pchiligi ijobiy ovoz bergan taqdirda o'quvchi qabul sinovidan o'tgan hisoblanadi.

23. Qabul komissiyasining raisi barcha a'zoldan so'ng ovoz beradi. Ovozlar soni teng bo'lib qolganda qabul komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

24. Qabul komissiyasi o'quvchini o'qishga qabul qilish yoki qabul qilmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi. Qabul komissiyasining ijobiy qaroriga asosan muassasa direktori o'quvchini o'qishga qabul qilish to'g'risida 31-avgust kuniga qadar buyruq chiqaradi.

25. O'quvchilarni o'quv yili davomida o'qishga qabul qilishga yo'l qo'yilmaydi, boshqa Ta'lim muassasasidan o'qishi ko'chirilgan o'quvchilar bundan mustasno.

26. Ota-onalarga (qonuniy vakillarga) ijodiy sinov natijalari va qabul komissiyasining qabul qilingan qarorlari, shuningdek ta'lim muassasasiga qabul qilingan bolalar uchun keyingi harakatlar tartibi ma'lum qilinadi.

27. Qabul komissiyasining ijobiy qaroriga asosan ta'lim muassasasi direktori o'quv yili boshlangunga qadar o'quvchini o'qishga qabul qilish to'g'risida buyruq chiqaradi.

28. Qabul komissiyasi bayonnomalari elektron shaklda (matn ko'rinishida) tayyorlanib, Komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolanadi hamda yig'ma jild (reyestr)da tikib boriladi.

29. Qabul komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali ip o'tkazib bog'lanadi va raqamlanadi hamda ta'lim muassasasi direktori tomonidan imzolanib, muhrlanadi.

30. Qabul komissiya bayonnomalari va mazkur bayonnomalarni ro'yxatga olish jurnali o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari (mas'ul kotib) tomonidan yuritiladi.

VIII. Yakunlovchi qoidalar

31. Ijodiy sinovlar shaffof, qulay muhitda, bolaning individual xususiyatlari va yoshiga qat'iy amal qilgan holda o'tkaziladi.

32. Qabul komissiyasining barcha a'zolari odob-axloq qoidalari me'yoriga rioya etishlari, axborotning xolisligi va maxfiyligini ta'minlashlari shart.

33. Mazkur Yo'riqnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq hal etiladi.

Bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar SHAKLLARI

1. Kadrlarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali (1-ilova)
2. Asosiy faoliyatga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali (2-ilova)
3. O'quvchilarga oid buyruqlarni ro'yxatga olish jurnali (3-ilova)
4. Ta'lim muassasasining o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi (4-ilova)
5. Ta'lim muassasasi pedagogik kengashining o'quv yiliga mo'ljallangan ish rejasi (5-ilova)
6. Pedagogik kengash yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (6-ilova)
7. O'qish uchun to'lovlardan ozod etish va o'qituvchi hamda konsertmeysterlarga har oylik ustamalar belgilash bo'yicha komissiya bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (7-ilova)
8. Bitiruvchilarga o'qishni tugatganligi to'g'risida berilgan guvohnomalarni qayd etish kitobi (8-ilova)
9. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish daftari (9-ilova)
10. Ota-onalarning umumiy yig'ilishi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (10-ilova)
11. Mehnat shartnomalari va mehnat daftarchalarini (mavjud bo'lsa) hisobga olish kitobi (11-ilova)
12. Ta'lim muassasasi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarni ro'yxatga olish jurnali (12-ilova)
13. Ta'lim muassasasi direktori bilan o'quvchilar ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga tuzilgan shartnoma (13-ilova)
14. Ta'lim muassasasi direktori bilan o'quvchilar ota-onalari o'rtasida o'qish muddatiga tuzilgan shartnomalarni ro'yxatga olish jurnali (14-ilova)
15. Faxriy yorliq, diplom va tashakkurnomalarni ro'yxatga olish jurnali (15-ilova)
16. O'quv jarayonlarini tashkil etishga oid farmoyishlarni ro'yxatga olish jurnali (16-ilova)
17. Ta'lim muassasasining tasdiqlangan o'quvchilar kontingenti (17-ilova)
18. Ta'lim muassasasining umumiy soatlar rejasi (setkasi) (18-ilova)
19. O'qituvchi va konsertmeysterlarning tarifkatsiya ro'yxati (19-ilova)

20. O'qituvchi va konsertmeysterlarning haftalik yuklama soatlari qaydnomasi (20-ilova)
21. Ta'lim muassasasining umumiy dars jadvali (21-ilova)
22. Ta'lim muassasasining guruhli dars jadvali (22-ilova)
23. Yakka tartibdagi sinf jurnali (23-ilova)
24. Kichik guruhli sinf jurnali (24-ilova)
25. Katta guruhli sinf jurnali (25-ilova)
26. O'zgargan soatlar bo'yicha bildirgi (26-ilova)
27. O'qituvchi va konsertmeysterlar tabeli (27-ilova)
28. Ma'muriy-xo'jalik xodimlar tabeli (28-ilova)
29. Yakka tartibdagi o'quv mashg'ulotlari uchun shaxsiy ish rejasi (29-ilova)
30. San'at yo'nalishlari uchun o'zlashtirish tabeli (30-ilova)
31. Guruhli fanlar bo'yicha taqvimiy ish rejasi (31-ilova)
32. Jamoa ijrochiligi fanlari (xor, orkestr, ansambl) bo'yicha repertuar rejalari (32-ilova)
33. Qabul sinovlarida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini aniqlash qaydnomasi (33-ilova)
34. Ta'lim muassasasining qabul komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (34-ilova)
35. O'quvchilarning o'qishini bir ta'lim yo'nalishidan boshqasiga ko'chirish komissiyasi bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (35-ilova)
36. Akademik konsertlar, texnik sinovlar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari (36-ilova)
37. San'at yo'nalishlari bo'yicha ijodiy sinovlar, ko'rgazmalar, sinfdan sinfga o'tkazish va bitiruv imtihonlarini qayd etish kitoblari (37-ilova)
38. Ta'lim muassasasi o'quvchilarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari (38-ilova)
39. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'linmalar (uslubiy birlashmalar) ish rejasi (39-ilova)
40. Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bo'linmalar yig'ilishlari bayonnomalarini ro'yxatga olish jurnali (40-ilova)

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
4-ilova

Ta'lim muassasasi pedagogik kengashining
20__ yil _____dagi "____"-son
yig'ilishida ma'qullangan.

"TASDIQLAYMAN"

_____tuman (shahar)
_____-son bolalar musiqa va
san'at maktabi direktori

_____ imzo _____ ismi va familiyasi
"_____" _____ 20__ yil

_____tuman (shahar) ____-son bolalar musiqa va san'at maktabining
20__/20__ o'quv yiliga mo'ljallangan
ISH REJASI

T/r	Tadbirlar nomi	Bajarish muddati	Mas'ul ijrochilar
I. O'quv-tarbiyaviy faoliyat bo'yicha			
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			

II. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bo'yicha			
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			
III. Moliyaviy-xo'jalik faoliyat bo'yicha			
1.			
2.			
3.			
4.			
5.			
6.			
7.			

Izoh: Ta'lim muassasasining ish rejasini ishlab chiqishda maktabning asosiy maqsadiga erishish, faoliyati bilan bog'liq eng muhim masalalar, mavjud muammolarni bartaraf etish va istiqboldagi rejalaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi.

**O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari**

imzo

ismi va familiyasi

**Xo'jalik ishlari bo'yicha
direktor o'rinbosari**

imzo

ismi va familiyasi

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
5-ilova

Ta'lim muassasasi pedagogik kengashining
20__ yil _____dagi "____"-son
yig'ilishida ma'qullangan.

"TASDIQLAYMAN"
_____tuman (shahar)
_____-son bolalar musiqa va
san'at maktabi Pedagogik kengash
raisi

_____ imzo _____ ismi va familiyasi
"____" _____ 20__yil

_____tuman (shahar) ____-son bolalar musiqa va san'at maktabi
Pedagogik kengashining 20____/20____ o'quv yiliga mo'ljallangan
ISH REJASI

T/r	Kun tartibidagi masalalar	Pedagogik kengashini o'tkazish muddati	Mas'ullar
I. Birinchi yig'ilish			
1.		2025-yil avgust oyi	
2.			
3.			
II. Ikkinchi yig'ilish			
1.		2025-yil noyabr oyi	
2.			
3.			

III. Uchinchi yig'ilish			
1.		2025-yil yanvar oyi	
2.			
3.			
IV. To'rtinchi yig'ilish			
1.		2025-yil mart oyi	
2.			
3.			
V. Beshinchi yig'ilish			
1.		2025-yil iyun oyi	
2.			
3.			

Izoh: Ta'lim muassasasining pedagogik kengashi yig'ilishlari zaruratga ko'ra navbatdan tashqari o'tkazilishi mumkin.

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
8-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

MADANIYAT TA'LIMI MARKAZI

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARINING BITIRUVCHILARGA O'QISHNI
TUGATGANLIGI TO'G'RISIDA BERILGAN GUVOHNOMALARNI QAYD ETISH**

K I T O B I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

MADANIYAT TA’LIMI MARKAZI

_____ viloyati (shahar)

_____ tuman (shahar)

**_____-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN’AT MAKTABI BITIRUVCHILARIGA
O‘QISHNI TUGATGANLIGI TO‘G‘RISIDA BERILGAN GUVOHNOMALARNI QAYD ETISH**

K I T O B I

Boshlandi: “ ____ ” _____ 20 ____ yil.

Tugadi: “ ____ ” _____ 20 ____ yil.

T/r	Bitiruvchiga berilgan guvohnoma seriya va raqami	Bitiruvchining familiyasi, ismi va otasining ismi	Tug'ilgan sanasi	Tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma (ID karta) seriya va raqami	Ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi	O'qishga kirgan yili	Ta'lim muassasasini tamomlagan yili

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
11-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

MADANIYAT TA'LIMI MARKAZI

**BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARINING
MEHNAT SHARTNOMALARI VA MEHNAT DAFTARCHALARINI HISOBGA OLISH
K I T O B I**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

MADANIYAT TA‘LIMI MARKAZI

_____ viloyati (shahar)

_____ tuman (shahar)

**_____-SON BOLALAR MUSIQA VA SAN‘AT MAKTABINING
MEHNAT SHARTNOMALARI VA MEHNAT DAFTARCHALARINI HISOBGA OLISH
K I T O B I**

Boshlandi: “ ____ ” _____ 20 ____ yil.

Tugadi: “ ____ ” _____ 20 ____ yil.

Ota-onalar bilan o'qish muddatiga tuzilgan

SHARTNOMA № _____

Toshkent sh.

“ _____ ” _____ 20__ y.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 5-maydagi 144-son qarori bilan tasdiqlangan “Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi Nizom”ga muvofiq, _____ tuman (shahar) _____-son bolalar musiqa va san'at maktabi (keyingi o'rinlarda – ta'lim muassasasi) nomidan direktor _____ bir tomondan, _____ (keyingi o'rinlarda – ota-onalar) ikkinchi tomondan, birgalikda tomonlar deb ataladigan shaxslar mazkur shartnomani quyidagicha tuzdilar:

I. Shartnoma predmeti

1.1. _____ keyinchalik o'quvchi deb yuritiluvchi ta'lim muassasasi qabul komissiyasining 20__ yil “ _____ ” _____dagi _____-son qarori hamda ta'lim muassasasi direktorining 20__ yil “ _____ ” _____dagi _____-son buyrug'i asosida ta'lim muassasasining _____ sinfi, _____ yo'nalishi, _____ mutaxassisligiga o'qishga qabul qilingan o'quvchiga ta'lim xizmatini ko'rsatishni, o'qish uchun belgilangan to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni va tasdiqlangan o'quv reja bo'yicha darslarga to'liq qatnashishini ta'minlashni o'z zimmlariga oladi.

1.2. Ta'lim muassasasiga o'qishga qabul qilingan o'quvchilar O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni va davlat ta'lim talablariga muvofiq ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlari asosida ta'lim oladilar.

II. Ta'lim xizmatini ko'rsatish narxi, to'lash muddati va tartibi

2.1. Ta'lim muassasasida o'qish uchun to'lanadigan to'lov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-son qarorining 35-ilovasi bilan tasdiqlangan to'lov miqdorining yil boshida bazaviy hisoblash miqdorining _____ foizi miqdorida undiriladi.

2.2. Ta'lim muassasasida o'qish uchun to'lanadigan to'lov o'quv yili (sentabr – may oylari) uchun to'lanadi. To'lovlar har oyda kelgusi oyning 5-sanasi kechikmasdan to'lanadi.

2.3. Bolaning kasalligi davrida (2 haftadan kam bo'lmaganda) ta'lim muassasasida o'qish uchun to'lov olinmaydi. Bunda, bolaning kasalligi to'g'risida ota-onaning arizasi va davolash muassasasidan yoki hudud shifokoridan olingan ma'lumotnoma taqdim etilishi zarur.

2.4. Ta'lim muassasasida o'qish uchun amalga oshiriladigan to'lov tegishli xizmat ko'rsatuvchi bankka to'lanadi va to'lov to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (kvitansiya) nusxasi bolalar musiqa va san'at maktabiga taqdim etiladi.

2.5. Agar to'lov naqd pulsiz shaklda amalga oshirilgan bo'lsa, ta'lim muassasasiga to'lov topshiriqnomasining nusxasi (to'lov to'langanligi to'g'risidagi bank belgisi qo'yilgan holda) taqdim etiladi.

2.6. Agar to'lov ushbu shartnomaning 2.2-bandida ko'rsatilgan muddatdan ikki hafta mobaynida uzrli sabablarsiz to'lanmagan taqdirda, o'quvchilar ta'lim muassasasi ro'yxatidan chiqariladi.

2.7. O'quvchining ta'lim muassasasida ta'lim olganligi uchun mavjud bo'lgan qarzdorlik bir oy ichida to'langan taqdirda, o'quvchi mazkur sinfning o'quv dasturlari talablarini bajargandan so'ng o'quvchilar safiga qayta tiklanadi. O'quvchi o'qishni tegishli to'lovni amalga oshirgan holda keyingi o'quv yilida (o'tgan o'quv yilining tugatilmagan choragining birinchi oyidan) davom ettirishi mumkin.

2.8. Agarda bir oilaning ikki va undan ortiq farzandi ta'lim muassasasida o'qisa, ulardan har birining o'qishi uchun belgilangan to'lovning 70 foizi miqdorida to'lov amalga oshiriladi.

III. Tomonlarning majburiyatlari

3.1. Ta'lim muassasasining majburiyatlari:

Hududiy madaniyat boshqarmalarining hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari, buyruqlari va boshqa me'yoriy hujjatlari ijrosini ta'minlash, topshiriq va ko'rsatmalarini bajarish;

o'z ustavida belgilangan vazifalarni bajarish;

davlat ta'lim talablari, belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv rejasi va o'quv dasturlari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish;

o'quvchilarni maktabdan tashqari ta'limga jalb etish maqsadida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

ta'lim-tarbiya jarayonini sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normalari, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiq tashkil etish;

ta'lim muassasasi xodimlarini qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish;

muassasaning moddiy-texnika ta'minotini va kadrlar salohiyatini rivojlantirish.

3.2. Ota-onalarning majburiyatlari:

farzandining jismoniy va ruhiy sog'lom bo'lishi uchun g'amxo'rlik qilish;

bolaning qadr-qimmatiga hurmat bilan qarash, uni mehnatsevarlik, ezigulik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash;

farzandida qonunlarga itoatkorlik, inson huquqlari va erkinliklariga hurmat tuyg'usini tarbiyalash;

farzandiga o'quv mashg'ulotlarida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

farzandining ta'lim olishiga ko'maklashish va uzrli sabablarsiz o'quv mashg'ulotlariga muntazam qatnashishini ta'minlash;

o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirish;

qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlar.

3.3. O'quvchining majburiyatlari:

ta'lim muassasasining ichki tartib-qoidalariga rioya qilish;

ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasidan samarali foydalanish va uni asrab-avaylash;

jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etish;

o'z ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil egallash ko'nikmasini hosil qilish va uni amalda qo'llash;

qonunchilikda belgilangan boshqa majburiyatlar.

IV. Tomonlarning huquqlari

4.1. Ta'lim muassasasining huquqlari:

ta'lim muassasasi xodimlari va o'quvchilardan muassasaning ustavi va ichki tartib-qoidalariga rioya etilishini talab qilish;

o'quv jarayonini takomillashtirish va ta'lim jarayonini metodik ta'minlash bo'yicha takliflar kiritish;

moliyalashtirishning qonunchilikda taqiqlanmagan turli manbalari hisobiga budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish.

4.2. Ota-onalarning huquqlari:

ta'lim muassasasi rahbariyatidan farzandi uchun mazkur maktabning ustaviga muvofiq zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish;

bola shaxsiga hurmat bilan munosabatda bo'lishni talab qilish;

jamoatchilik asosida ta'lim muassasasining ish faoliyatida ishtirok etish;

qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlar.

4.3. O'quvchining huquqlari:

davlat ta'lim talablari asosida ixtiyoriy ravishda ta'lim olish;

qiziqishiga ko'ra ta'lim yo'nalishini tanlash;

bir necha ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim olish;

insoniy qadr-qimmatining hurmat qilinishini talab qilish, vijdon erkinligi, axborot erkinligi, o'z qarashlari va e'tiqodini ifodalash;

ta'lim muassasasining o'quv va ish faoliyatini takomillashtirishga oid takliflar berish;

qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlar.

V. Shartnomaning amal qilish muddati, unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda bekor qilish tartibi

5.1. Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolanganidan so'ng kuchga kiradi hamda ta'lim xizmatlarini taqdim etish o'qish muddati tugagunga qadar amalda bo'ladi.

5.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega deb xisoblanadi va taraflarga bir nusxadan beriladi.

5.3. Ushbu shartnoma shartlariga ikkala tomon kelishuviga asosan tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin

5.4. Shartnomaga tuzatish, o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda "Shartnomaga qo'shimcha bitim" tarzida kiritiladi va imzolanadi.

5.5. Shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:
tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan;
tomonlardan biri o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda;
o'qishning boshqa ta'lim muassasasiga ko'chirilishi munosabati bilan;
ta'lim muassasasi tugatilganda.

5.6. O'quvchi ta'lim muassasasidan chetlashtirilganda ta'lim muassasasi tashabbusi bilan shartnoma bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

VI. Yakuniy qoidalar va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Ushbu shartnomani bajarish jarayonida kelib chiqishi mumkin bo'lgan nizo va ziddiyatlar tomonlar o'rtasida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

6.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizoni hal etish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, tomonlar nizolarni hal etish uchun amaldagi qonunchilikka muvofiq iqtisodiy sudga murojaat etishlari mumkin.

6.3. Ta'lim muassasasi axborotlar va xabarnomalarni internetdagi veb-saytida, axborot tizimida yoki e'lonlar taxtasida e'lon joylashtirish orqali xabar berishi mumkin.

6.4. Ushbu shartnomaga qo'shimcha bitim kiritilgan taqdirda ushbu barcha kiritilgan qo'shimcha bitimlar kontraktning ajralmas qismi hisoblanadi.

VII. Tomonlarning rekvizitlari va imzolari

7.1. Ta'lim muassasasi:

ta'lim muassasasi nomi

Manzili: _____

Bank rekvizitlari: _____

Telefon raqami: _____

Direktor imzosi: _____

7.2. Ota-onalar:

ota-ona ismi va familiyasi

Yashash manzili: _____

Pasport ma'lumotlari: _____

Telefon raqami: _____

Ota-ona imzosi: _____

T/r	Yo‘nalish bo‘yicha t/r	O‘quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi	O‘quvchining tug‘ilgan sanasi	O‘quvchining mutaxassisligi	O‘quvchining sinfi
Ta‘lim yo‘nalishi nomi					
Ta‘lim yo‘nalishi nomi					
Ta‘lim yo‘nalishi nomi					

Izoh: Ta‘lim muasasasi o‘quvchilar kontingenti ta‘lim yo‘nalishlari kesimida sinflar ketma-ketligi bo‘yicha shakllantiriladi.

_____yo'nalishi bo'yicha soatlar rejasi (setkasi)

T/r	O'quv fanlari noni	Sinflar							Umumiy		
		1	2	3	4	5	6	7	Kichik	Yuqori	Jami
O'quvchilar soni		30	30	30	30	30			60	90	150
Yakka tartibdagi soatlar											
1	Mutaxassislik	60	60	60	60	90			120	210	330
2	<i>Konsertmeysterlik soati</i>	30	30	30	30	45			60	105	165
3	Notani varaqdan o'qish		15	15	15				15	30	45
4	Ansambl			15	15	15			0	45	45
5	<i>Konsertmeysterlik soati</i>			15	15	15			0	45	45
6	Umumiy fortepiano	15	30	30	30	30			45	90	135
7	Tanlangan fan		15	15	15	15			15	45	60
8	<i>Konsertmeysterlik soati</i>		15	15	15	15			15	45	60
Jami		105	165	195	195	225			270	615	885
Guruhli soatlar											
Guruhlar soni		4	4	4	4	4			8	12	20
1	Solfedjio	6	6	6	6	8			12	20	32
2	Maqom alifbosi	4							4	0	4
3	Xorijiy va MDH xalqlari musiqa adabiyoti		4	4					4	4	8
4	O'zbek musiqa adabiyoti				4	4			0	8	8
Guruhlar soni		2	2	2	2	2			4	6	10
5	Jamoa ijrochiligi (xor, orkestr, ansambl turlari)	2	4	4	4	4			6	12	18
6	<i>Konsertmeysterlik soati</i>	2	4	4	4	4			6	12	18
7	Yig'ma mashg'ulotlar	0,5		0,5					0,5	0,5	1
8	<i>Konsertmeysterlik soati</i>	0,5		0,5					0,5	0,5	1
Jami		15	18	19	18	20			33	57	90
Umumiy		120	183	214	213	245			303	672	975

Izoh: Soatlar rejasi (setkasi) ta'lim muassasidasi mavjud ta'lim yo'nalishlari kesimida tasdiqlangan o'quv reja va o'quv rejaga tushuntirishlar asosida ishlab chiqiladi.

**O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha
direktor o'rinbosari**

_____imzo

_____ismi va familiyasi

T/r	O'quv soatlari va stavkalar miqdori	Kichik sinflar	Yuqori sinflar	Umumiy	O'qituvchi-konsertmeysterlar tarkibi	Jami	Shundan, malaka toifa kesimida				
							oliy toifa	birinchi toifa	Ikkinchi toifa	mutaxassis (oliy)	mutaxassis (o'rta maxsus)
1	Jami o'quv soatlar				Jami o'qituvchi-konsertmeysterlar						
	pedagogik soatlar				o'qituvchilar						
	konsertmeysterlik soatlar				konsertmeysterlar						
2	Shundan, taqsimlangan o'quv soatlar				Jami asosiylar						
	pedagogik soatlar										
	konsertmeysterlik soatlar										
3	Jami vakant o'quv soatlar				o'qituvchilar						
	pedagogik soatlar				konsertmeysterlar						
	konsertmeysterlik soatlar										
4	Jami stavkalar				Jami o'rindoshlar						
	pedagogik stavkalar				o'qituvchilar						
	konsertmeysterlik stavkalar				konsertmeysterlar						

O'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor

imzo

ismi va familiyasi

Bosh buxgalter

imzo

ismi va familiyasi

Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi

imzo

ismi va familiyasi

**Pedagog
xodim**

imzo

ismi va familiyasi

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
20-ilova

“TASDIQLAYMAN”

_____ tuman (shahar)

_____ -son bolalar musiqa va
san'at maktabi direktori

imzo

ismi va familiyasi

“ _____ ” _____ 20__ yil

_____ tuman (shahar) _____ -son bolalar musiqa va san'at maktabi
o'qituvchi-konsertmeysterlarining haftalik yuklama soatlari
QAYDNOMASI

20 ____ / 20 ____ o'quv yili

_____ yo'nalishi, _____ mutaxassisligi o'qituvchisi
 (konsertmeysteri) _____ ning
 yakka tartibdagi haftalik yuklama soatlari

T/r	O'quvchining familiyasi, ismi va otasining ismi	Sini	Haftalik dars soatlari				Konsertmeyster ismi va familiyasi	Izoh
			pedagogik soatlar		konsertmeysterlik soatlar			
			kichik	yuqori	kichik	yuqori		
Mutaxassislik								
1								
2								
3								
4								
5								
Notani varaqdan o'qish								
1								
2								
3								
4								
5								
Ansaml								
1								
2								
3								
4								
5								
Akkompaniment								
1								
2								
3								
4								
5								
Jami soatlar								
Stavkasi								
Umumiy stavkasi								

_____yo‘nalishi, _____mutaxassisligi
o‘qituvchisi (konsertmeysteri) _____ning
yakka tartibdagi haftalik yuklama soatlari

T/r	Oylar	Haftalik sotlar				O‘quvchi dars qoldirganligi sababli ushlab qolingani soatlar				O‘qituvchi dars qoldirganligi sababli ushlab qolingani soatlar			
		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik	
		kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori
1	sentabr												
2	oktabr												
3	noyabr												
4	dekabr												
5	yanvar												
6	fevral												
7	mart												
8	aprel												
9	may												
10	iyun												

Qo‘shimcha soatlar

T/r	Oylar	Qo‘shimcha soatlar (qarzdorlik)				Vakant soatlarni almashtirish yo‘li bilan o‘tilgan dars soatlar				O‘qituvchini almashtirish yo‘li bilan o‘tilgan dars soatlar			
		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik	
		kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori
1	sentabr												
2	oktabr												
3	noyabr												
4	dekabr												
5	yanvar												
6	fevral												
7	mart												
8	aprel												
9	may												
10	iyun												

Izoh:

_____ yo'nalishi, _____ mutaxassisligi o'qituvchisi
 (konsertmeysteri) _____ ning
guruhli haftalik yuklama soatlari

T/r	Guruhli fanlar nomi	Sini	Haftalik dars soatlari				Konsertmeyster ismi va familiyasi	Izoh
			pedagogik soatlar		konsertmeysterlik soatlar			
			kichik	yuqori	kichik	yuqori		
1								
2								
3								
4								
5								
6								
7								
8								
9								
10								
11								
12								
13								
14								
15								
16								
17								
18								
19								
20								
Jami soatlar								
Stavkasi								
Umumiy stavkasi								

_____yo‘nalishi, _____mutaxassisligi
o‘qituvchisi (konsertmeysteri) _____ning
guruhli haftalik yuklama soatlari

T/r	Oylar	Haftalik sotlar				O‘quvchi dars qoldirganligi sababli ushlab qolingan soatlar				O‘qituvchi dars qoldirganligi sababli ushlab qolingan soatlar			
		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik	
		kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori
1	sentabr												
2	oktabr												
3	noyabr												
4	dekabr												
5	yanvar												
6	fevral												
7	mart												
8	aprel												
9	may												
10	iyun												

Qo‘shimcha soatlar

T/r	Oylar	Qo‘shimcha soatlar (qarzdorlik)				Vakant soatlarni almashtirish yo‘li bilan o‘tilgan dars soatlar				O‘qituvchini almashtirish yo‘li bilan o‘tilgan dars soatlar			
		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik		pedagogik		konsertmeysterlik	
		kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori	kichik	yuqori
1	sentabr												
2	oktabr												
3	noyabr												
4	dekabr												
5	yanvar												
6	fevral												
7	mart												
8	aprel												
9	may												
10	iyun												

Izoh:

Bolalar musiqa va san'at maktablari
faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlar shakllariga
23-ilova

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI
МИНИСТЕРСТВО КУЛЬТУРЫ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАНА

MADANIYAT TA'LIMI MARKAZI
ЦЕНТР ОБРАЗОВАНИЯ В СФЕРЕ КУЛЬТУРЫ

SINF JURNALI
КЛАССНЫЙ ЖУРНАЛ

(yakka tartibdagi darslar uchun / для индивидуальных уроков)

fanlar _____
предметы

(viloyat, shahar, tuman/область, город, район)

_____ -SON BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABI

ДЕТСКАЯ ШКОЛА МУЗЫКИ И ИСКУССТВ № _____

20_____/20_____ o'quv yili / учебный год

O'qituvchi _____
Преподаватель



SINF JURNALLARINI YURITISH BO'YICHA YO'RIQNOMA UMUMIY QOIDALAR

1. Sinf jurnali o'qituvchilarning dars soatlari mazmuni, sifati va hajmini belgilovchi asosiy hujjatdir.
 2. Sinf jurnali ikki muhim vazifani bajaradi. O'quvchilarning o'quv dasturini o'zlashtirish jarayoni natijalarini ko'rsatish bilan birga o'qituvchi va konsertmeysterning oylik yuklamasini hisob-kitob qiluvchi moliyaviy hujjat hisoblanadi.
 3. O'qituvchining mehnat samaradorligi sinf jurnalining rasmiylashtirilishiga bog'liq, bular:
 - o'quv fani dasturini bajarilishi;
 - o'quvchilarning joriy va oraliq attestatsiyadan o'tishi;
 - uy vazifalarini taqsimlanishi (guruh darslarda);
 - o'quvchining qoldirgan darslari haqida ma'lumotlarning aniqligi.
 4. Bundan tashqari, sinf jurnallarida o'tgan darslar uchun ish haqi to'lovlari: ta'til vaqtidagi ishi hamda almashish yo'li bilan ishlagani uchun ko'rsatilgan ish soatlar haqi to'g'riligi aniqlanadi. Sinf jurnalining 2-ta turi mavjud. Guruh darslari uchun hamda yakka tartibdagi darslar uchun jurnallar (bundan keyin – jurnal deyiladi).
 5. Sinflar raqamlanishi arab raqamlarida amalga oshiriladi:
 - 7-yillik o'qish muddatida – 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7;
 - 5-yillik o'qish muddatida – 1/5; 2/5; 3/5; 4/5; 5/5.
 6. Jurnal bir o'quv yiliga mo'ljallangan.
 7. Jurnallar maktabda 5 yil davomida saqlanadi, muddat o'tganidan so'ng Pedagogik kengash qarori bilan utilizatsiya qilinadi.
- ### II. Jurnal to'ldirish qoidalari
8. Jurnal titul varag'ida fan mutaxassisligi, maktabning to'liq nomi, tuman, shahar, o'quv yili, o'qituvchining familiyasi, ism va sharifi ko'rsatiladi.
 9. Jurnal yuritish qoidalari betida o'qituvchi Tanishganligi to'g'risida imzo qo'yadi.
 10. Jurnaldagi barcha yozuvlar havorang pastali sharikli ruchkada aniq va o'zgartirishsiz yoziladi. Har xil siyohlarning bir betda ishlatilishi man qilinadi. O'chirg'ich va shtrixlarni ishlatish man etiladi. O'quvchining baholarida yo'l qo'yilgan xatolik kabi istisno holatlarda kiritilgan tuzatishlar jurnal oxiridagi "Izohlar" sahifasida o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari imzosi bilan "tuzatilgan" degan yozuv qayd qilinadi.
 11. O'quvchining familiyasi va ismi dars jadvali bo'yicha yoziladi.
 12. Konsertmeysterning familiyasi, ismi va otasining ismi uning ish kunlariga mos ravishda ish vaqti (boshlanishi va tugashi) ko'rsatilgan holda alohida ajratilgan ustunga yoziladi.
 13. Dars jadvali dastlab qalam bilan yoziladi, darsning boshlanishi va tamom bo'lishi ko'rsatiladi, 10 kun ichida esa ruchka bilan yoziladi.
 14. Dars jadvali tuzilganida darslar orasida 5 daqiqalik tanaffus kiritiladi.
 15. Ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan dars jadvali tasdiqlangandan so'ng, agar jadvalga o'zgartirish kiritish zarurati tug'ilsa, o'qituvchi bu o'zgarishni ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan kelishgan holda, jurnal shakliga mos bo'lgan qo'shimcha varaqda amalga oshirishi mumkin. Ushbu varaq o'quv-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan imzolanib tasdiqlanadi va so'ng jurnalga ilova qilinadi.
 16. Jurnal yuritilishi bir o'quv yiliga mo'ljallangan bo'lib, ta'til kunlarini o'z ichiga oladi (kunlar kalendar bo'yicha belgilanadi). O'qituvchi har bir sahifaga oy nomini kiritadi hamda o'quvchilar ro'yxatidan oldin fanlar nomi yoziladi.
 17. Agar barcha o'qitiladigan fanlar bo'yicha o'quvchilarning familiyalarini kiritish uchun bitta sahifada joy yetarli bo'lmasa, har bir oy uchun ketma-ket ikki varaqdan foydalanishga ruxsat beriladi.
 18. O'quvchilarning davomati va o'zlashtirishi har bir darsda quyidagi belgilar bilan qayd etiladi: "–" (kelmadi), "b" (darsda bo'ldi) yoki ("2", "3", "4", "5") o'zlashtirish baholari qayd etib boriladi:
 - Bunda, bitta fan bo'yicha dars jadvalida ketma-ket 1,5 yoki 2 soatgacha dars mashg'ulotlari belgilangan taqdirda, davomat ustunida bitta "b" belgisi qayd etiladi.
